

SAMDU TARIX FAKULTETI
TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
KAFEDRASI

MUSLIMOV SHERZOD AKBAROVICH

“OSSIYA VA O’RTA OSIYONING TARIXIY
ALOQALARI(XVI-XX ASRLAR”

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

ILMIY RAHBAR: prof. SAIDOV I.M.

SAMARQAND-2014

REJA:

Kirish.....3-10-betlar

I Bob. Rossiya-

O'rta Osiyo munosabatlari tarixining tarixshunoslikdagi talqini.

1.1. S.M. Solovyovning tarixiy merosida Rossiya-O'rta Osiyo
munosabatlarining yoritilishi.....11-14-betlar

1.2. Rossiya-O'rta Osiyo madaniy-savdo aloqalarining eng yangi
manbalarda yoritilishi.....15-20-betlar

II bob. Sobiq Ittifoq davrigacha bo'lgan davr Rossiya-O'rta Osiyo **munosabatlari tarixi.**

2.1. XVI-XIX asrda O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi madaniy-savdo
aloqalarining tarixshunosligi.....21-35-betlar

2.2. Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlarining siyosiy jihatlari36-47-betlar

III bob. O'zbekiston-Rossiya o'zaro munosabatlaridan **kutilayotgan istiqbol natijalar.**

3.1. Munosabatlarning zamonaviy jihatlari.....48-56-betlar

3.2. Sobiq Ittifoq milliy siyosati oqibatlarining Rossiya-O'zbekiston
munosabatlariga tasiri.....57-61-betlar

Xulosa.....62-64-betlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....65-74-betlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr boshida kechgan bor-yo'g'i o'n yillik tarixiy davr mobaynida bundan oldingi asr voqealariga bir qator sezilarli o'zgartirishlar kiritildi. XX asrning o'rtalariga kelib ikkita jahon urushi nihoyasiga yetgandan so'ng, xalqaro jahon hamjamiyati begona hududlarning koloniyalarga aylantirilishiga qarshi kurasha boshladi.

Dunyoda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bir qator erkin va suveren davlatlar vujudga kela boshladi. Bu mustaqil davlatlar dunyo tajribasini o'rgangan holda rivojlanishning demokratik yo'lini tanlay boshladilar.

Demokratik jamiyat qurish yo'lida shu vaqtgacha bosib o'tilgan tarixiy bosqichlarni tahlil etish asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Jamiyat va davlatchilik tarixni yanada chuqurroq anglash va undan to'g'ri xulosa chiqarish mustaqil davlat barpo etish yo'lida asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamonaviy bosqichda tarixiy bosib o'tilgan yillarga qayta nazar tashlash ilmiy tadqiqot olib borishda zaruriy jihatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so'ng fanning barcha sohalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu jumladan, tarix fani va uning rivojiga ham katta e'tibor berildi. Bu borada 1998 yilda O'zbekiston Prezidentining FA qoshidaga Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi farmoni bu yo'ldagi dastlabki qadam bo'ldi¹. Bundan tashqari Prezident I.A. Karimovning o'sha yili bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvi chog'ida O'zbekistonning yangi tarixini yaratish borasidagi fikrlari va ko'rsatmalari tarixchilar zimmasiga asl tarixni yaratishdek mashaqqatli hamda sharaflı vazifani ko'ndalang qo'ydi²

¹ Ўзбекистон Республикаси ФА қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида Вазирлар маҳкамасининг қарори / Халқ сўзи. 1998 йил. 28 июль.

² Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 3-4.

Tarixchi olimlarning amalga oshirgan ishlariga Prezident I.A.Karimov quyidagicha munosib baho berdi: “O‘zbek olimlari say harakatlari natijasida tariximizning muhim bo‘lgan ko‘pgina sahifalari qayta ochildi, eng avvalo Temuriylar davri, XIX asr oxiri-XX asr boshlari qayta tadqiq etildi”³. O‘zbek tarixchi-olimlarining bu yutuqlari eng avvalo yangi konseptual-metadalogik yondashuvlar tufayli qo‘lga kiritildi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo xalqlari hayotida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadimgi dunyo sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir.

O‘zbekistonning boy o‘tmishi va uning ko‘psonli tarixiy obidalari, moddiy va manaviy madaniyati azaldan sharqshunos olimlarni o‘ziga jalb etib kelgan.

Tarixiy rivojlanish pallasida davlatlarning o‘zaro aloqalari muammosini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bir guruh tarixchilarning takidlashicha yangi davrga kelib Sharq xalqlari rivojlanishdan to‘xtagan va turg‘unlik davrini boshdan kechirishgan. Ammo bu fikrga ko‘pgina tarixchi olimlar qo‘shilmaydilar. Chunki Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga chuqurroq nazar tashlasak ular yuksak rivojlangan moddiy va manaviy madaniyat yaratishga muvoffaq bo‘lishganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Bunga O‘zbekiston yaqqol misol bo‘la oladi. Har tamonlama va chuqur o‘rganilgan so‘nggi o‘rta asrlar davridan bizning davrimizgacha bo‘lgan (XVI-XX asrlar) tariximizga nazar tashlasak ajdodlarimizning qanday yuksak madaniyatga ega bo‘lganliklariga yana bir bor amin bo‘lamiz. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki tarixshunoslik fanida bu mavzu yuzasidan qilingan fundamental ishlar juda sanoqlidir. Ilmiy ishda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida olib borilgan madaniy, savdo va siyosiy munosabatlar kabi tarixiy muammolar masalasiga keng etibor qaratilgan.

³Каримов И.А. Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида, ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-6.117-118

Mavzuning o'rganilish darajasi: Rossiya bilan O'rta Osiyo o'zaro aloqalari mavzusida ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan.

S.M.Solovyov o'zining 29 tomdan iborat "Rossiyaning qadimdan boshlab tarixi" nomli asarida Rossiya bilan O'rta Osiyo o'zaro aloqalari masalasiga ham alohida etibor qaratgan. Yuqorida keltirib o'tilgan kitob Rossiya tarixiga bag'ishlab yozilgan bo'lib, har bir tomda Rossiya davlati tarixining alohida-alohida davriy bosqichlari yoritilgan. Bu yuqoridagi kitobda O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ham ko'plab malumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, xususan Rossiyaning tashqi siyosati bo'limida O'rta Osiyo xonliklari haqida malumotlar berilgan. S.M.Solovyovning yozib qoldirishicha o'sha vaqtda Chor Rossiyasi katta mablag'ga muxtoj bo'lagan. Shu sababli imperator Pyotr I O'rta Osiyoning metallurgiya boyliklariga ko'z olaytirganligi haqida qiziqarli malumotlarni keltirib o'tadi.⁴

V.V. Bartold o'zining Sharq tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarida Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasida aloqalarning rivojiga alohida etibor qaratib, uning yozib qoldirishicha Rossiyaning Kaspiy dengizidan sharqda joylashgan mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy jihatdan etibor qarata boshlashi XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi.⁵

Rossiya va O'rta Osiyo tarixi rivoji masalasida V.Dubovitskiy ham o'z maqalalarida bir nechta o'ziga xos jihatlarni keltirib o'tgan. Uning takidlashicha ular o'rtasidagi munosabatlarning birinchi bosqichi VIII-IX asrlardayoq boshlangan bo'lib, bu munosabatlar XVII asrgacha davom etgan. V.Dubovitskiyning fikricha ular o'rtasidagi munosabatlarning yorqin kechgan. Ikkinchi davri Pyotr I hukmronligi davriga to'g'ri keladi. V.Dubovitskiyning fikricha Rossiya hukumati rahbari o'lkan O'rta Osiyo hududiga Hindistonga olib boruvchi yo'l sifatida qaraganini takidlaydi⁶.

⁴Соловьёв С. М. Сочинения. М., 1993.

⁵Бартольд В. В. Сочинения. М., 1977. Т. 9.

⁶Дубовицкий В. Русские в Средней Азии // Москва. 1991.

M.Yu.Yo'ldoshev o'z ilmiy ishida O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi malumot almashish yo'lariga alohida etibor qaratadi. Boshqa tarixchi olimlar kabi u ham ular asosan ikki yo'l orqali yani Janubiy-Sharqiy va Sibir yo'llaridan foydalanganliklari haqida yozadi⁷.

X.Z.Ziyoyev o'z tadqiqotlarini XVI-XIX asrda, O'rta Osiyo va Sibir o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga qaratgan bo'lib, uning takidlashicha XVII asrning ikkinchi yarmidan savdo aloqalarda Sibirning janubiy tarmog'i Rossiyaning Yevropa qismidagi savdo aloqalariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etgan⁸.

X.G'ulomov o'z maqolasini elchi F.Benevinining Buxoroga elchi sifatida yuborilishiga qaratib muallifning fikricha bu Pyotr I ning sharqqa qaratgan muhim siyosatlaridan biri bo'lib, bu siyosatdan ko'zlangan maqsad Rossiyaning Sharqda turgan o'rnini yanada mustahkamlash, eng avvalo Kaspiy dengizi hududida o'z mavqeini tiklash, O'rta Osiyo xonliklari va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashdan iborat bo'lgan⁹.

G.A.Hidoyatov o'zining monografik tadqiqotlarida inqilobgacha bo'lgan adabiyotlarni o'rganish bilan bir qatorda ingliz tarixchilari asarlariga ham murojaat qilgan¹⁰.

G'.A.Ahmedjonov o'zining «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishining Sobiq Ittifoq davri tarixshunosligi». nomli ilmiy ishida Turkistonning Rossiya tarkibiga qo'shilishi masalasiga alohida etibor qaratib, to'liqligicha bu borada Sobiq Ittifoqda davrida yozilgan adabiyotlarni tadqiq etdi. Muallif hattoki ayrim inqilobgacha bo'lgan yuqoridagi mavzuda yozilgan asarlarga ham murojaat qildi¹¹.

⁷Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XV1-XVI1 вв. Ташкент, 1964.

⁸Зияев Х. З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. Ташкент, 1983; его же: Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века) // ОНУз. 1984. №1; его же: УртаОсиёва Сибирь: XVI-XIX асрлар. - Тошкент: АН УзССР. 1963; его же: Средняя Азия и Сибирь (2 пол. XVI - XIX вв.). Ташкент, 1964.

⁹Гулямов Х. О Посольстве ФлориоБеневени в Бухару // Общественные науки в Узбекистане. 1978. №2.

¹⁰Хидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70 гг.). Ташкент, 1969

¹¹Ахмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1989. его же: Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в

Men dissertatsiya ishim uchun yana quyidagi mualliflarning ilmiy ishlaridan foydalandim: Azarenko Yu.A, Andreyev A.L, Boxanov A.N., Gorinov M.M, Baxrushina S. V, Brjostovskaya N.V, Bolshakov O .G, Baykov N.B, Veka.A.V, Vilkov O. N, Valeev F.T, Jamolov K.K, Islamov Yu.V, Kastelskoy Z.D, Muxammejonov L.P, Mo'minov I.M, Mixaylov G.A, Pankov A.V, Po'latov X.G, Rajabov Z, Suxareva O.A, Tereshenko Yu.YA, Tomilov N.A, Fedchina V.N, Xayretdinov D, Chexovich A.D, Yarkov A, Garifullin I.B.¹²

Dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti ilmiy tadqiqot ishlariga mos keladi.

Туркестане). Ташкент, 1995. его же: Россия и Центральная Азия. Взаимосвязь в историческом развитии. М-Т, 2008

¹²Азаренко Ю.А Русско-ойратская торговля XVII - первой половины XVIII вв. (как пример евразийских связей)// Евразия: культурное наследие древних цивилизаций. Вып. 1. Культурный космос Евразии. Новосибирск, 1999; Андреев А.Л. Экономический механизм и историческая жизнь нации// Философия хозяйства. Альманах Центра общественных наук и экономического факультета МГУ. 1999. № 2; Боханов А.Н., Горинов М.М., Дмитренко В.П. История России. XX век в 3-х книгах. Книга III. М., 2001; Бахрушин С. В. Сибирь и Средняя Азия в XVI и XVII вв. // Науч. тр. Т. 4. М.: Наука, 1959; Бржостовская Н.В. Вопросы архивного дела на археологических съездах в России (1869-1911 гг.) // Археографический ежегодник за 1971 год. М., 1972; Большаков О. Г. Город в конце VIII-начале XIII вв. // Средневековый город Средней Азии. -Л.: Наука. 1973; Байкова Н.Б. Роль Средней Азии о русско-индийских торговых связях: Первая половина XVI-вторая половина XVIII вв. -Указ. изд. Ташкент, 1957; Байкова Н.Б. К вопросу о русско-индийских торговых отношениях в XVI-XVII вв. // Труды ИВ АН УзССР. Вып. 4. -Ташкент: АН УзССР, 1956; Века.А.В. История России с древнейших времен до наших дней. Минск, 2006; Вилков О. Н. Очерки социально-экономического развития Сибири конца XVI - начала XVIII в. Новосибирск: Наука, 1990; Его же: Бухарцы и их торговля в Западной Сибири в XVII в. // Торговля городов Сибири конца XVI - начала XX в. Новосибирск, 1987; Валеев Ф.Т. К вопросу о материальной культуре сибирских бухарцев и ташкентцев (Коллекция предметов быта Омского краеведческого музея) // Общественные науки в Узбекистане, 1963. N 1.; Его же: Сибирские бухарцы во второй половине XIX - начале XX вв.: Автореф. дисс. к.и.н. Ташкент, 1965; Его же: Сибирские татары: культура и быт. Казань, 1992; Джамалов К.К. К истории торговых отношений Средней Азии о Россией с древнейших времен до XVIII в. // Изв. Отд. общ. Наук АН ТаджССР. № 2 (10). Душанбе, 1965; Его же: Торгово-дипломатические отношения Бухарского ханства с Россией в XVII в. -АҚД. Душанбе, 1965; Исламов Ю.В.// Герои Советского Союза. Краткий биографический словарь. Т. 2. М.: Воеиздат, 1988; Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края: 1865-1917 гг. - М.: Наука, 1980; Мухаммеджанова Л.П., Мирза кулов Б.Т., Мухаммеджанова С.Ж. Диبلوماسية и торговые связи Бухары с Россией XVI-XVIII вв.// «Горный вестник Узбекистана» (№ 25) 2006; Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане в конце XIX - начале XX вв.// Избр. соч. Т. 1. Ташкент, 1969; Михайлова Г.А. Торговые и дипломатические связи России с Бухарским ханством через Оренбург в конце XVIII-начало XIX вв.-АҚД. - Ташкент: АН УзССР, 1963; Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией в 1675-1785гг. Торговля с Бухарой...М., 1991; Пулатов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII в. /АҚД. - Ташкент, 1984; Раджабов З. Ажзи и Асири, Душанбе, 1951; Узбекская советская энциклопедия. Т. 1. Ташкент, 1971; Раджабов З.Ш. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX и начале XX вв. -Сталинабад. 1957; Сухарева О.А Бухара XIX - начала XX вв. М., 1966; Терещенко Ю.Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д, 2004; Томилов Н.А. Тюркоязычное население Западно-Сибирской равнины в конце XVI - первой четверти XIX вв. Томск, 1981; Его же: От Урала до Енисея (народы Западной и Средней Сибири). Томск, 1995; Федчина В.Н. Развитие картографических представлений о Средней Азии с древнейших времен до XVIII в. Научн. зап. ТИНХ. - Вып. 31. - Ташкент, 1964; Хайретдинов Д. Узбеки, узбекская община в Москве и Подмоскowie// Ислам в Москве. Н. Новгород, 2008.

Tadqiqot olib borishdan maqsad: Ishdan maqsad O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi XVI-XX asrlar oralig'idagi o'zaro munosabatlar tarixi borasida yoritilmay qolgan jihatlarni keltirib o'tishdan iborat. Shu munosabat bilan tadqiqot muallifi oldiga quyidagi bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qo'yildi:

1. XVI-XX asrlarda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlari rivojining qonuniyligini ko'rsatish.

2. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi muhim jihatlarni ochib berish.

3. Tahlil etish va birlamchi yozma manbalarda, moddiy arxeologik materiallarda, muzeylarda, arxivlarda, kutubxonalarda saqlanayotgan materiallarni, madaniyat savdo, turmush tarzibilan bog'liq malumotlarni tanqidiy jihatdan o'rganish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'rta Osiyo davlatlari bilan Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar masalasini manbashunoslik va tarixshunoslik jihatidan o'rganishdan iborat. Tadqiqotning predmeti bo'lib O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya davlati o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar xizmat qiladi. Bunda ikki tomonlama manfaatli aloqalarning miqdor ko'rsatkichlariga ham katta etibor qaratiladi.

Tadqiqotning xronologik chegarasi. Tadqiqotning xronologik chegarasi XVI asrdan XX asrgacha ya'ni markaziy Rossiya davlatchiligi tashkil topishidan hozirgi vaqtgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Rossiya davlatchiligi qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamli tashqi aloqalar olib borgan bo'lib, shuningdek ularga geopolitik jihatdan foydali hudud sifatida qaragan. Rossiya imperialistik qudratli davlat sifatida ayniqsa siyosiy va iqtisodiy aloqalar masalasiga alohida etibor qaratgan. Bu borada keyingi xronologik bosqichlarda ham O'rta Osiyo davlatlari o'zaro munosabatlarda tub o'zgarishlar sodir etilgani yo'q. Ayniqsa XIX-XX asrda bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish muhim bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

---Tarixiy manbalarda keltirib o'tilgan tizimli malumotlarga asoslangan holda Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlarining tarixiy ildizlari belgilanmoqda;

---Magistrlik dissertatsiyasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda birinchi marotaba o'zaro munosabatlarning diplomatik va iqtisodiy jihatlari o'rganilmoqda

---Birinchi marotaba Mustaqil O'zbekistonning zamonaviy ilm -fan yutuqlaridan kelib chiqqan holda manbashunoslik nuqtayi nazaridan O'rta Osiyo davlatlari bilan Rossiya o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalar ilmiy muomalada bo'lgan tarixiy materiallarga tayanilgan holda o'rganishga urunib ko'rildi.

---Tadqiqotda tarixshunoslik va manbashunoslik muammolari bo'yicha bu ikki davlat o'rtasida XX asrda kechgan o'zaro munosabatlar masalasida yangi jihatlarga etibor qaratilgan. Chunki bu vaqtga kelib O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida ham, Rossiyada ham jamiyat qarashlari borasida siyosiy qarashlarida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada keltirib o'tilgan dalillar mutaxassislar, mahalliy tarixchilar va barcha tarixiy o'tmish va bugun bilan qiziquvchi O'zbekiston va Rossiya xalqlari uchun bahs-munozara mavzusi bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik va nazariy asoslar. Tadqiqotning metodologik va nazariy asosini I.A.Karimov asarlari, Rossiya va O'zbekiston tarixchilari asarlari tashkil etadi. Keltirib o'tilgan yirik dalillarga asoslangan malumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar ayniqsa XVII asrning 2-yarmidan boshlab yanada rivojlangan bo'lib, bu esa O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga yanada turtki bergan.

Natijalarning tadbiq etilishi. Samarqand Davlat Universitetining “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrası o’quv-metodologik va ilmiy faoliyati davomida dissertatsiya ishi bo’yicha asosiy ilmiy xulosalar chiqarildi.

Ishning amalda qo’llanishi: Dissertatsiyada keltirib o’tilgan asosiy jihatlar 2012-2014 o’quv yilida Samarqand Davlat Universiteti olimlari va magistirlarining ilimiy-amaliy konferensiyasida muhokamaga qo’yildi.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari bo’yicha ikkita ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Ilmiy ish 74 betdan iborat bo’lgan kompyuter varag’ida chop etilgan.

I BOB.ROSSIYA-O'RTA OSIYO MUNOSABATLARI TARIXINING TARIXSHUNOSLIKDAGI TALQINI

1.1.S.M.Solovyovning tarixiy merosida Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlarining yoritilishi.

Shuni alohida takidlash lozimki tarixchi Sergey Mixaylovich Solovyov tomonidan yaratilgan (1820-1879) "Rossiyaning qadimdan boshlab tarixi" asariga Rossiya tarixi fanida teng keladigan asar yo'q. Bu tarixiy ilmiy ishni yaratish uchun olim o'zining 30 yillik umrini sarflagan. Uning bunday keng ko'lamli fuqarolik jasoratini hanuzgacha hech kim yangilay olgani emas. Ilmiy ishga bunday yondashuv ichki mantiqqa asoslanish dalillarni aniq tarzda keltirish Rossiya hayotini o'rganish oson kechgani emas. U boshqalarni o'z tarixini chuqurroq bilishga undash maqsadida avvalo o'zi tarix fanini chuqurroq o'rgandi ¹³.

S.M.Solovyov tarjimai holi haqida qisqacha malumot. U Moskva shahrida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Shu sababli uning shaxs sifatida shakllanishiga oiladagi diniy muhit katta tasir etgan bo'lib keyinchalik u Rossiya tarixini yoritishda ayniqsa pravoslav dini vakillariga katta etbor qaratdi. S.M.Solovyov hali 13 yoshga to'lmasdan N.M.Karamzinning (1766-1826) "Rossiya davlati tarixi" kitobini 10 marotaba o'qib chiqdi. Uning keying qiziqishi sayohatchilar tomonidan yozib qoldirilgan qo'lyozma asarlar bo'ldi. 1838-yilda S.M.Solovyov Moskva Universiteti talabasiga aylandi. U falsafa fakultetining 1-bo'limida (1838-1842) umumiy tarix kafedrasida professori o'rta asr Yevropa tarixini o'rganish bo'yicha rus maktabi asoschilaridan biri T.N.Granovskiy (1813-1855) dan tahsil oldi. Solovyov bu yerda tahsil olar ekan rus tarixini kengroq va chuqurroq o'rganish lozimligini tushunib yetdi. Aynan Granovskiyning maruzalari orqali Solovyov rus tarixining diniy, huquqiy, siyosiy, etnografik va adabiy hayotiga katta qiziqish uyg'onib bu qiziqish uni umr bo'yi tark etmadi. 1842-yilda universitetni tugatar ekan, Solovyov chet elga graf A.G.Strogonov oilasiga uy o'qituvchisi

¹³ Соловьев С.М. История России с древнейших времен. М, 2005. с. 62

sifatida jo'nab ketadi.U bu yerda zamonaviy Yevropa hayoti ilmi haqida yanada chuqurroq malumotlarga ega bo'ldi.1845-yilda Solovyov chet eldan qaytib kelar ekan, u "Novgorodning buyuk knyazlariga bo'lgan munosabati" mavzusidagi o'zining magistrlik dissertatsiyasini yoqladi va Moskva Universitetida rus tarixi bo'yicha tahsil bera boshladi¹⁴.

Uning Novgorod haqidagi ilmiy ishi orqali u yirik olim,kuchli bilim sohibi ekanligini, rus tarixini yaxshi bilishini barchaga isbotladi. Solovyov o'zining "Ryurikovlar xonadonidagi rus knyazlarining o'zaro munosabati tarixi" kitobini doktorlik dissertatsiyasi sifatida yoqladi.Bu orqali u rus tarixi bo'yicha 1-darajali mutaxassis ekanligini anglatar edi.

Moskva Universitetida Solovyov ayrim tanaffuslarni inobatga olmaganda rus tarixi bo'yicha 30 yilga yaqin dasr berdi.U keyinchalik dekan va rektor lavozimlariga ham saylandi.U o'z maruzalarida o'zining tinglovchi talabalarini ishonarli dalillar bilan malumotlarni ketma-ketlikda keltira olishi bilan hayratga solar edi.

Solovyovning konsepsiyasiga ko'ra tadqiqotchi hech qachon rus tarixini alohida qismlarga, davrlarga bo'lib keltirmasligi,malumotlarni zanjir usulida keltirishi,har bir voqeaga davlatning ichki muammolardan kelib chiqqan holda yondashish,so'ngra bu malumotlarni tashqi omillar tasiri bilan bog'lash lozim deb hisobladi¹⁵.

Bu nuqtayi nazar rus tarixshunosligining keyingi rivojiga katta tasir o'tkazdi. Solovyovdan oldingi tarixchilar rus tarixini tashqi omillar asosida davrlarga bo'lgan bo'lsa,Solovyov davriga kelib rus tarixi rivojlanish bosqichi asosida qayta ko'rib chiqildi.Yani urug'chilikdan davlatchilikgacha bo'lgan davrga bosqichma bosqich o'tib,dastlab qabilalar knyazliklarga, knyazliklar esa yagona davlatga birlashtirildi. Solovyov fikricha davlat-bu xalqning o'zidir.Millat esa-uni rivojlantiruvchi kuchdir. Ular biri ikkinchisini to'ldirib turadi.Shu sababli Rossiya

¹⁴АхмеджановГ.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.142

¹⁵ Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.95

tarixi bu uning davlatchilik tarixidir.Solovyov Karamzinning rus tarixi bu uning hukumati – hayotidir degan qarashlariga qarshi chiqib, davlatchilik tarixi-unda yashovchi xalq tarixi deb takidlaydi.Solovyovning “Rossiyaning qadimdan boshlab tarixi” nomli asosiy ilmiy asari aynan yuqoridagi firkin aniq tarixiy materiallarni keltirib o’tgan holda isbotlaydi.

Solovyov butun umrini ilm sohasiga bag’ishladi.Uning har bir kuni daqiqasigacha belgilab qo’yilgan bo’lib,shu sababli u o’z ish stolida ilm jarayonida vafot etadi. Solovyov Rossiya tarixining qadimdan hozirgacha bo’lgan yagona ko’rinishi yo’qligini tushunib yetgandan so’ng u bunday ilmiy ishni yaratishga kirishadi.U 30 yilga yaqin vaqtini yuqoridagi asarni yozib tugallashga sarfladi. Bu asarning I tomi 1851-yilda nashrga berilgan bo’lib,undan so’ng asarning keying tomlari yildan yilga chiqa boshladi.Asarning so’nggi 29-tomi muallif vafotidan so’ng 1879-yilda dunyo yuzini ko’rdi.Solovyovning yuqoridagi asarini chop etish uchun masul bo’lgan V.Tatarinov shunday yozadi:”Bunday ilmiy ish rus tarixshunosligi uchun misli ko’rilmagan yutuq bo’lib hisoblanadi.Hali uy qurulishi belgilab qo’yilgan joyda bir inson ham asosni qo’yishga,ham uyning devorlarini, tomini yopishga,hattoki uyni jihozlashga ham qodir bo’ldi”deb yozadi.

“Rossiyaning qadimdan boshlab tarixi” asari 13000 betdan iborat.Unda arxiv materiallari, qo’lyozmalar, yilnomalar, xatlar, qonunchilik aktlari, guvohlar bergan malumot va memuar asarlardan keng foydalanilgan.Ko’pgina mutaxassislar Solovyovning yuqoridagi asari bilan to’liq tanishib chiqdim deb maqtana olaolmaydilar. Bu kitob Rossiya tarixi bo’yicha yirik va muhim manba bo’lib hisoblanadi.Undagi keltirilgan malumotlar ketma ketlikda keltirilgan bo’lib o’quvchini qiziqtirib qo’yadi.¹⁶.

Rossiya-yagona eng yirik Yevroosiyodagi davlatdir.Bu davlat tarixi bilan ko’pgina xorijlik mutaxassislar singari o’zbek tarixchi olimlari ham shug’ullanib kelmoqdalar. Ular shubhasiz o’z ishlarida S.M.Solovyovning “Rossiyaning

¹⁶АхмеджановГ.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.146

qadimdan boshlab tarixi” kitobidan tarixshunoslik bo’yicha manba sifatida foydalanadilar.

1.2. Rossiya-O'rta Osiyo madaniy-savdo aloqalarining eng yangi manbalarda yoritilishi

Barcha mamlakatlarda turli sabablarga ko'ra tarix faniga bo'lgan qarash o'zgarib boradi: bunga sabab yangi hujjatlar paydo bo'ladi, siyosiy tuzum o'zgaradi, mamlakatlarda yangi tarixchilar sahnaga chiqadi. Bu yangi tarixchilar dunyoga boshqacha o'z nazarlari bilan boqqa boshlaydilar. Ammo hech bir yerda Rossiya tarixi kabi Sobiq Ittifoqi davrida o'tmish tarixiga bunchalik o'zgartirish kiritilmagan. Bunday nuqtayi nazar vakillaridan biri zamonaviy tarixchi va siyosatchi M.Geller o'zining "Rossiya imperiyasi tarixi" nomli 2 tomli asarida yuqoridagi fikrlarni aytib o'tgan¹⁷.

M.N. Pokrovskiy o'tmishga baho berar ekan "Tarix bu-o'tmishga tashlab yuborilgan siyosatdir" deb aytib o'tadi.

O'tmish haqida bahs munozaralar barcha mamlakatlarda shu vaqtgacha davom etgan bo'lib Sobiq Ittifoq davrida yuqoridan berilgan buyruq asosida go'yoki haqiqatni o'rnatish maqsadida tarix sahifalariga soxta o'zgartirishlar kiritildi. Bu holat XX asrning 90-yillari boshlariga qadar davom etdi.

Sobiq Ittifoq parchalanishi natijasida Rus tarixi o'tmishiga yana o'zgartirishlar kiritila boshlandi. Hozirgi kunda bu holatni tug'ulish, rivojlanish, gullab-yashnash va imperiyaning tanazzulga yuz tutishi davri tarixi bilan izohlash mumkin. Sobiq Ittifoq parchalanishi uning tarixiga yangicha nazar bilan qarashga imkon tug'durdi.

Aynan shu davrda M.Geller tomonidan "Rossiya imperiyasi tarixi" asari yaratilgan bo'lib, bu asar dastlabki slavyan qabilalari haqidagi qo'lyozmalarda keltirilgan malumotlar bilan boshlanib, oktabr to'ntarishigacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu kitob oddiy, hamma bop tilda yozilgan bo'lib, dunyo olimlari orasida katta etirofga sazovor bo'ldi. Yuqoridagi kitob 1996-yilda

¹⁷ Геллер М. История Российской империи: в 2 т. М., 2001. с. 51

Vengriyada chop etilgan bo'lsa,1997-yilda Fransiyada chop ettirildi(“Plon” nashriyoti).

Yangi Rossiya tarixi bo'yicha oliy o'quv yurtlari uchun tarixiy darslik sifatida bu kitobning 2-tomi juda ahamiyatli bo'lib,tomning xotima qismi sarlavhasi “Imperiyadan imperiyagacha” deb nomlanadi(479-484-betlar).

Shu yerda yuqoridagi kitobdan bir parcha keltirishni lozim deb topdim:”Eng katta va eng qudratli Rossiya o'zini Sobiq Ittifoqning merosxo'ri deb elon qildi”¹⁸

...Kelajak quyidagi asosiy savollarga javob berishi lozim:Rossiya kapitalizmni quradimi va unda davlat qanday ahamiyatga ega bo'ladi,mamlakatda demokratiya qay mavqeda o'rnatiladi?Yana bir asosiy savollardan biri Rossiya hozirga chegaralari bilan qanoatlangan holda yashay oladimi,yoki geosiyosiy va psixologik kuchlar harakati yordamida o'z chegaralarini yanada kengaytiradimi?

Rossiya XXI asr ostonasida o'z milliy maqsadini belgilab olishga kirishdi.XX asr davomida u o'z imperiyasidan 2 marotaba ayrildi.

Yana bir kapital asarlardan biri A.N.Saxarovning “Rossiya tarixining XIX asr boshidan XXI asr boshigacha bo'lgan davri”nomli asaridir.Bu kitobning 2-tomi oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib,kitob tarix fanlari doktori A.N.Boxanov,V.A.Shestakov,shuningdek,A.N.Saxarovlar tomonidan yozilgan.

O'quv qo'llanmaga A.A.Molchanovning katta illyustrativ materiallari kiritilgan.Kitob 2005-yilda Moskva shahrida chop etilgan bo'lib uning hajmi 863 betdan iborat.Darslikning o'zi mantiqiylikka asoslangan holda 5 bo'limdan iborat bo'lib,1-bo'lim “Rossiya XIX asrda”,2-bo'lim “Rossiya XIX asr oxiri-XX asr boshlarida”,3-bo'lim “Rossiya buyuk to'ntarishlar davrida”,4-bo'lim “Sovet jamiyatining qurulishi”,5-bo'lim”SSSRdan zamonaviy Rossiyaga” deb nomlanadi.Bu bo'limlarda Rossiyada hukmronlik qilgan XIX asrdan-XX asr boshigacha o'z faoliyatini olib brogan imperatorlardan Aleksandr I dan Nikolay II

¹⁸АхмеджановГ.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.147

gacha,yani 1917-yil 2-mart kuni uning taxtdan ag'darilguniga qadar bo'lgan davr yoritib berilgan.Ayniqsa XIX asrning dastlabki yillarida Rossiya tashqi siyosati 1812-yildagi urushlar,1814-yilgi Vena kongresi voqealari,1853-1856-yilgi Qrim voqealari,1825-yil 14-dekabrda dekabristlar harakati va qo'zg'oloni voqealari juda qiziqarli tarzda yoritib berilgan¹⁹.

Dekabristlar harakati ulkan Rossiya imperiyasi aholisining ko'pchiligi uchun uncha sezilarsiz o'tgan bo'lsada ammo yuqori jamiyat ziyolilari elitasi hayotida sezilarli iz qoldirdi.

Inqilobchilar saflaridagi harakat sust darajada kechgan bo'lsada ammo uning azolari mashhur shaxslardan iborat bo'lib,ular orasida A.S.Pushkin, N.M.Karamzin, V.A.Jukovskiy kabi rus adabiyotining yirik namoyandalari mavjud edi.Ularning respublikachilik, antikrepastnoy,ozodlikni sevish kabi qarashlari hukumatga qarshi mardonavor kurashish axolining yosh qatlami orasida katta tasurot o'yg'otdi.

1825-yilgi 14 dekabrda sodir etilgan voqealar Rossiya aholisining tinch-totuv yashaydigan qismini yangi Imperator boshchiligida konservativ kuch ostida birlashishiga majbur qildi.Ular o'z hayotidan qo'rquv va o'lim hissini yo'q qilishib barcha hududlar bo'ylab inqilobiy harakatlarni olib bordilar.Dekabristlarning ekstrimistik harakatlari natijasida Rossiyaning evolyutsion rivojlanishi ancha orqaga suruldi.Reaksion va xudbinlik ko'rinishida harakat olib brogan pomeshiklar bu yo'da ularga yordam berdilar.Inqilobchilarning dekabristlar g'oyalari yo'lidan borib olib brogan bunday harakatlari XIX asr –va XX asrning boshlarida Rossiya boshiga katta kulfatlarni yog'dirdi.²⁰

Asarning mantiqiy tuzulishiga ko'ra uchinchi va beshinchi boblari o'zaro bir-birini to'ldiradi. Birinchi bo'limda Nikolay I hukumronligi davridagi milliy masalalar va imperiya qarashlari masalasi,shuningdek Rossiyaning XIX asr birinchi yarmidagi jamoaviy fikrlash masalasi yoritib beriladi.

¹⁹ O'sha joyda.b.148

²⁰ Сахарова А.Н.История России с начала XIX до начала XXI века.М,2005.с.119

O'sha bo'limning o'zidan Rossiyaning tashqi siyosatiga bag'ishlangan Qrim urushidan XX asrgacha bo'lgan voqealar yoritilgan 7 bobni ajratib olishimiz mumkin. Yuqoridagi bobning uchinchi paragrafida O'rta Osiyoning bosib olinishi haqida so'z yuritilib, unda keltirib o'tilishicha O'rta Osiyoning bosib olinishi bilan Rossiya chegaralarining to'liq shakllanishi ham nihoyasiga yetgan. Rossiyaning Turkistonda koloniyal tuzumi masalasi, iqtisodiy siyosat masalasi, qishloq xo'jaligi masalasi, paxta yetishtirishga ixtisoslashish masalasi yaxshi yoritilmagan.

III va VI bo'limlarda 1917-yilgi oktyabr to'ntarishi va totalitar davlatning dunyoga kelishi tarixi haqqoniy tarzida yoritilgan. Shuningdek yuqoridagi bo'limlarda sovet iqtisodiy modeli tizimi: Bozorga qarshi reja, SSSR Ikkinchi jahon urushi davri 1939-1945 yillar, urushdan keying xalq xo'jaligining rivojlanishi va sovuq urush yillari ya'ni SSSR va AQSHni militarizm darajasiga olib kelgan voqealar haqida yozib o'tilgan.

SSSR buyuk qudratli davlat sifatida talqin etilib Stalin hukumatining global strategiyalarni o'zgartirishga o'rinishi haqida ishonarli malumotlar keltirib o'tilgan.

Sovuq urush boshlanishi bilan endi g'arb davlatlari bilan ittifoq tuzishga urinilmasdan balki kapitalizmga barham berish yo'li bilan dunyoda hukmronlikni o'rnatishga harakat qilindi.

Ammo 80 yillarning o'rtalariga kelib SSSR ning tashqi siyosatda samarasiz global siyosat olib borayotganligi oydinlashib qoldi chunki sovet tuzimi dunyoda kechayotgan qurollanish poygasiga o'zining munosib javobini qaytarishga qodir bo'lmay qoldi. Shuningdek KPSSning komunizm va antiimperializm kuchlariga qarshi harakati ham natija bermadi. Bu esa Sovet hukumati rahbarlarining dunyoda

kechayotgan jarayonlarni tushunmasliklaridan dalolat berar edi. Endi sovet ittifoqi tashqi siyosatni yurg'izishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirishi zarur edi.²¹

«SSSRdan zamonaviy Rossiya sari» Darslikning xotima qismi hissoblangan beshinchi bo'limi sovet hokimyatining tanazulga yuz tutishi va transformatsiya tizimi davrida zamonaviy Rossiyaning sharoitlariga bag'ishlangan. Oxirgi 24-25 boblarida totalitar tizimning va sovet tuzumining samarasiz ekanligi haqida yozilgan bo'lib Yangi Rossiya davlatchiligining tashkel topishi va uning bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Umuman olganda «XIX asr boshidan XX asr boshigacha bo'lgan davrda Rossiya tarixi» asari muallifining bergan ma'lumotlari ishonarlidir : XXI asr boshidagi sodir bo'lgan voqealar shundan dalolat beradiki Rossiyada bu vaqtga kelib bir qator o'zgarishlar sodir etib bo'lingan edi. Bu esa Rus jamiyatining shu vaqtgacha yig'ilib qolgan muammolarni tug'ri tushunib yetganligidan va bu muammolarni inqilobiy yo'l bilan emas balki har kunlik mashaqqatli mehnat orqali yechish mumkinligini tushunib yetishdi.

Zamonaviy Rossiya tarix ilmda tarixshunoslik nuqtai nazaridan Rossiya tarixining XIX-XX asrlariga bag'ishlangan yangi bir qator darsliklarning vujudga kelganligi quvonarlidir. Rossiya federatsiyasi ta'lim vazirligi oily o'quv yurti talabalri uchun bunday sharoitlarni yaratib berdi. Bu kitoblar «Rossiya tarixi. XIX asr» (M., 2004. 352 b.); «Eng yangi tarix. XX asr» (M., 2004. 447 b.); «XIX-XX asr boshlarida Rossiya tarixi» (M., 2006. 544 b.). lardan iborat .

Bu darsliklarni birmabir ko'ribchi qamiz demak ulardan birinchisi hissoblangan «Rossiya tarixi. XIX asr» kitobi (tarix fanlari doktori, professor Tyukafkin muharrirligida) kitobi MD Uning Rossiya tarixi kafedrasida professorlar va dotsentlar tomonidan yozilgan bo'lib u yangi tarixiy tadqiqotlar va manbalar asosida yoritilgan oldingi darsliklarga qaraganda asosiy etib o'ralqning tarixiga

²¹ O'sha joyda. b. 150

,buyukshaxslargajamoathayotigavauningsiyosatigaqaratilgan.Birinchimarotabakred ittiziminingrivojlanishiiqtisodiytizimhaqidamalumotlarkeltirilibo'tadi.O'zimizdan qo'shadigan bo'lsak orzularimiz amalga oshib boradi. Yangi davr adabiyoti va darsliklar Rossiyaning XIX – XX asrlardagi tarixi Rossiyaning 1917 – yilga qadar bo'lgan tarixshunosligidan xabar beradi.

II BOB. SOBIQ ITTIFOQ DAVRIGACHA BO'LGAN DAVR ROSSIYA- O'RTA OSIYO MUNOSABATLARI TARIXI

2.1. Markaziy Osiyoning Rossiya bilan XVI-XIX asrlarda o'rnatgan savdo-madaniy aloqalari tarixshunosligi.

Rossiya va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqlari uzoq tarixga borib taqaladi. Bunday aloqalarning rivoj topishi ikki xalqning bir biriga yaqinlashtirgan jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi. XVI-XVII asrda O'rta Osiyo xonliklari hayotida ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi. So'nggi o'rta asrlarda O'rta osiyo va Rossiya o'rtasidagi aloqalarga jonlanish kuzatilib mayda hunarmandchilik rivojlanib bordi. Tashqi savdo aloqalarini olib borishga ko'plab to'siqlar mavjud bo'lib, ulardan biri ko'chmanchi qabilalar edi. Fazlulloh ibn Ruzbixon ma'lumotiga ko'ra (XVI asr) ko'chmanchi qabilalar savdo yo'llarida ko'plab talonchiliklarni amalga oshirardi. Shayboniylar hukmronligiga qadar Samarqand yerlarida hech bir savdogar erkin tarzda savdo aloqalarini olib borolmasi edi. bunga mo'g'ul qaroqchilar o'z tasirlarini ko'rsatardi²².

XVI asrning 60 yillaridan iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bo'lgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Suv yo'llarining qurilishi, yo'llarning kengaytirilishi, ko'priklar sifatining yaxshilanishi, karvon va sardobalarning bunyod etilishi hamda qaroqchilar qarorgohlarining vayron etilishi ijobiy natija berdi. XVI asr birinchi yarmidan XIX asr oxiriga qadar ikki o'rtadagi munosabatlar 3 yo'lda: Volga bo'yi (Astraxan va Nijegorod yarmarkasi), Uraloldi (Orenburg va Troitsk) va G'arbiy Sibir²³.

Mayda hunarmandchilikning ravnaq topishi Moskva Rusi shaharlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XVI asrda bu hududlardagi bozorlarning markazlashuviga sababchi bo'ldi. Moskvaning o'zi bir qancha antiqa tovarlar bilan savdo aloqalarini

²²Фазлаллах ибн Рузбехон Исфохани. Михманнамеи Бухара... С.80.

²³Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIXвв. - Ташкент: Фан, 1983. с.3.

jonlantirib turardi. Savdogarlar tez-tez yarmarkalar uyushtirib, iqtisodiy jihatdan boshqa viloyat savdogarlarini birlashtirishga harakat qildi. Ikki o'rtadagi savdo aloqalarining yuksak darajada rivoj topgani haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan²⁴. Ulardan biri 1566/67 yillarda Toshkent, Samarqand va Urganch savdogarlari tomonidan iltimos bilan Moskvaga yuborgan iltimosnomasi buning yaqqol dalilidir. Unda O'rta Osiyolik savdogarlar Astraxan, Qozon va Rossiyaning boshqa shaharlarida erkin savdoni amalga oshirishga ruxsat so'ralgandi. G'arbiy Sibir va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo aloqalari "Buxoro yo'li" deb nom olgandi²⁵. Buxorolik savdogarlar nafaqat O'rta Osiyo va Moskva o'rtasida balki Sibir, Tyumen, Ufa va Tobolsk hududlariga qadar dallolik ishlarini amalga oshirdi. G'arbiy Sibirning markaziy savdo rastasi hisoblangan Tobolskda buxorolik savdogarlar o'z mollarini 10000 rublga pullaganlar²⁶.

XVI-XIX asrda Samarqandlik savdogarlar Buxoro xonligi qaramog'ida Rossiya bilan savdo aloqalarini olib bordi. XVI asrga kelib Buxoro va boshqa o'zbek xonliklari uchun Rossiya bilan savdo aloqalari muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu holat Moskva va Peterburgda tashkil etilgan Buxoro va Xiva elchixonalarining yozishmalarida nomoyon bo'ladi. Rossiya hukumati Buxoro bilan orqali Hindisoton, Xitoy va Afg'oniston davlatlari bilan savdo aloqasini olib borishini juda yaxshi tushunardi. Savdoni kengaytirish ishlari Orenburg harbiy gubernatori zimmasiga yuklandi. Gubernatorning shaxsan o'zi Buxoro amiri bilan muloqotda bo'lish huquqi berildi.

O'rta osiyodan Rossiyaga chiqarilgan tovarlardan eng qimmatbahosi bu ipak va paxta matolari edi. Moskva savdogarlari esa O'rta Osiyo xonliklariga teri, yog'ochli uy jihozlari, oltin, kumush bolta, pichoq va boshqalarni olib kelardi. Buni evaziga bu hududdan qimmatbaho mollarni olib ketishgan. Xonlik hamda rus mollariga soliqlar o'ta past miqdorda solingan. Samarqandlik savdogarlar tashqi

²⁴Юлдашев М.П. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. -Ташкент: Наука, 1964. с. 22.

²⁵Зияев Х.З. Урта Осиё ва Сибирь: XVI-XIX асрлар. - Тошкент: АН УзССР. 1963. с. 130.

²⁶Кабо Р.М. Города Западной Сибири: Очерки экономической географии (XVII-первая половина XIX вв.) -М., 1949. с.118

savdoda muhim rol o'ynagan. 1557 – yilda Buxorodan Moskvaga yo'l olgan savdo karvonida samarqandlik Xo'ja To'ra ham bor edi. Moskvada bo'lib o'tgan muzokaralar ijobiy hal qilindi. Rossiyadan eksport qilinadigan tovarlar qatoriga qimmatbaho kiyimlar va sovuq qurollar joy oldi²⁷.

XVI asrning ikkinchi yarmiga qadar Moskvaga Buxorodan 13 marta va Xivadan 5 marta elchilar tashrif buyurdi. Ularning asosiy maqsadi Astraxan, Qozon va boshqa hududlarda savdo qilish huquqini qo'lga kiritish edi. Boris Godunov taxtga kelgach sharq bilan bo'layotgan savdoga katta e'tibor qaratilib, uning o'zi sharq savdogarlarning homiysi sifatida tanildi. 1596 – yil 31 avgustda Moskva tomonidan chiqarilgan qarorni mahalliy hukmdorlar ta'minlab berdi. Unda buxoro va no'g'aylik savdogarlarga Rossiya shaharlarida soliqlarsiz savdo qilish, mahsulotlarini sotib bo'lmagunga qadar shaharni tark etmaslik huquqi berildi. Boris Godunov buyrug'iga ko'ra sharq savdogarlarini barcha hududlarda asal va vino bilan kutib olishgan²⁸. XVI-XVII asrlarda Moskva Rusida shoyi matolar orasida buxoro shoyisi juda mashhur edi. U “dorogi” yoki “daragi” nomlari bilan mashhur edi. toza shoyidan turli xildagi rang-barang dastro'mollar tikishgan. Bu kabi dastro'mollar o'zining ingichka (misri) va yirik chiziqli (beqasam) ligi bilan ajralib turardi. Adras yoki poshshoi (to'lqinli chiziqlar bilan yoritilgan) kabi matolar Moskva Rusida sharillab oqayotgan daryo yoki chirmashib o'sayotgan o'simliklarni eslatardi²⁹.

Rus savdogarlari Markaziy Osiyoga teri, charm, movut, yog'ochli mahsulotlar, oyna va noyob mahsulotlarni pullashga olib borishgan. XVII asrda Markaziy Osiyoda sakkizta rus elchiligi, Rossiyada esa qirq marta xonliklar elchilari bo'lib qaytdi. Markaziy Osiyolik savdogarlar Sibir va Volga hududlariga paxtali qog'oz, shoyi matolar, kamon, gilam, qog'oz kabi mahsulotlarni olib borishgan. Chunki bu mahsulotlar mahalliy aholi o'rtasida haridorgir edi. shu bilan

²⁷Большаков О.Г. Город в конце VIII-начале XIII вв. //Средневековый город Средней Азии. -Л.: Наука. 1973. с.292.

²⁸Чехович А.Д. К истории Узбекистана в XVIII в. //Труды ИВ АН УзССР. Вып. 3. - Ташкент. 1954. с.50.

²⁹Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией: Конец XVI - начало XIX вв. //Общественные науки в Узбекистане. 1984. № 1. с.30.

birga noz-nematlar, qovun, ranglar va qimmatbaho toshlarni olib borishgan. Bu davrda yetti marta buxoroliklardan, beshta elchilar Buxoroga tashrif buyurishgan. Masalan, 1620 – yil Imomqulixon (1611-1642) Odambiyini rus podshosi Mixail Fyodorovich yoniga yuboradi³⁰. Javob xatida ikki tomon o'rtasida qaror topgan azaliy do'stlik, madaniy va savdo aloqalari gurkirab rivojlanishiga astoyidil harakat qilishi aytib o'tilgan. Buxoroga uyushtirilgan diplomatik safar (1620-1623) ga Ivan Danilovich Xoxlov boshchilik qildi. 1621 – yilda u Samarqanda bo'lib, Imomqulixon bilan uchrashdi hamda Xoxlovning xoxishiga ko'ra 27 asirni asirlikdan ozod etdi. Xo'ja Ibrohim ikki marotaba (1638 va 1642) Rossiya safarida bo'lib ikki o'rtada o'rnatilgan do'stlik va savdo munosabatlarini mustahkamlashga hissa qo'shdi³¹. Bunday muzokaralar siyosiy qarashlarga ham bog'liq bo'lib, ikki hukumat vakillari qalmiqlarga qarshi birga kurashishga kelishib oldi. Samarqand haqidagi ma'lumotlar Buxoroning tashqi aloqa hujjatlarida ko'plab uchraydi. Masalan Nodir Muhammadning taxtga o'tirishi (1642-1645) munosabati bilan 1643 – yil martda sar Mixail Federovichga yo'llagan xatida bundan keyin ham ikki davlat o'rtasida savdo va asirlar o'rtasida almashinuv amalga oshirilishi aytib o'tilgan. Bu xat davomida elchini Onisima Gribova kutib olgani va javob tariqasida No'g'oy yuzini yuborganligi aytiladi³².

O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan savdo aloqalari xalqlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. O'rta Osiyodan tashrif buyurgan karvon tarkibida mayda hunarmandlar, jarrohlar va me'morlar tashrif buyurgan. Dmitriy Donskiy saroyida mashhur samarqandlik arxitektor ustalar yashab ijod qilgani manbalarda qayd qilib o'tilgan. Buxoro, Xiva va Samarqanda rus savdogarlari va mayda hunarmandlarini aynan shu holatda uchratish mumkin. Ba'zi rus savdogarlari xonliklarda o'z savdo uyushmasiga ega bo'lib ikki o'rtada elchilik vazifasini ham bajarib bergan.

³⁰Федчина В.Н. Развитие картографических представлений о Средней Азии с древнейших времен до XVIII в. Научн.зап. ТИНХ. - Вып. 31. - Ташкент, 1964. С. 107.

³¹Чимимдоржиев Ш.Б. Взаимоотношения Монголии и Средней Азии с Россией в XVII- XVIII вв. -М.: Наука, 1979. С. 27.

³²Джамалов К. Торгово-дипломатические отношения Бухарского ханства с Россией в XVII в. -АКД. Душанбе, 1965. С. 8-10.

XVI asr birinchi yarmidan XIX asrga qadar Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida sovg'alar, tuxfalar va qimmatbaho buyumlar berish urfga kirgan edi. bu kabi sovg'alarni berishda xususiy savdogarlar xizmatidan foydalanishga to'g'ri kelardi. Bu esa o'z navbatida biroz xatarli ham edi³³.

O'rta Osiyolik savdogarlar Qozog'iston, Jung'orlar, Qashg'ar, Xitoy va Hindiston bilan savdo munosabatlarini yo'lga qo'ygan bo'lib Rossiyaning bu davlatlar bilan olib borgan savdo aloqalari ham aynan O'rta Osiyolik savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan. E. Meyendorf xabariga ko'ra 1775-1819 yillar oralig'ida Buxorodan Rossiyaga 11 ta elchi yuborilgan bo'lib, ularning 7 tasi bu hududda qolib savdo aloqalariga o'rgangan va Rossiya bilan savdo qilish huquqini qo'lga kiritgan³⁴. Rossiyada qolgan xonlik savdogarlari rus yerlarida qaysi mol haridorgirligi va yana qanday yangi molar keltirish zarurligini o'rganib qaytishgan. Aynan shu davr oralig'ida savdoda paxta, qog'oz va boshqa mahsulotlar Rossiya yerlarida ko'plaab miqdorda sotildi. Rossiyadan Buxoroga keltirilgan tovarlarga 10 %, Buxorodan Rossiyaga olib ketilgan tovarlarga esa 5 % miqdorda soliq solindi. Rus hukumati buxorolik elchi Ernazar Maqsudov (1774-1776: 1779-1780) xizmatlarini yuksak baholab unga savdo munosabatlarini rivojlantirish uchun Kaspiy dengizidagi bir Kemani hadya etdi. Undan tashqari rus xazinasidan 15 ming pud temir, 5 ming pud po'lat va 3 ming pud asalni hech qanday soliqlarsiz Buxoroga yuborishga ruxsat oldi³⁵.

Rus harbiylari Buranshev T. S. va Beznosikov A.S. 1794-1795 yillarda Turkistonga sayohat uyushtirdilar. Ular sayahatlari bo'yicha bergan hisobotda Buxoroning qog'ozi, paxtasi va otlari dunyoning boshqa hududidagidan ancha farqlanishi hamda oliy sifatga egaligi aytiladi³⁶. XIX asr birinchi yarmida ikki o'rtadagi savdoni Orenburgga keltirilgan qo'lga o'rnatilgan hayvonlardan ham

³³Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов - русский посланник в Персию и Бухару в XVII в. -СП(6)., 1891. С. 12.

³⁴Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов. -Указ.изд. С. 16.

³⁵Вызго Т.С. К вопросу о взаимосвязи узбекской и русской музыкальной культур в дореволюционный период. - Общественные науки в Узбекистане. 1961, № 4. С. 42.

³⁶Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края: 1865-1917 гг. - М.: Наука, 1980. С. 4-5.

bilishimiz mumkin. 1806 – yili Buxorodan tashrif buyurgan karvon saflarida 606 tuyada 1200 ga yaqin paxta toylari bor edi. 1811 – yilgi Karvonda esa 1066 ta tuyada 3,3 mln rublga teng tovarlar keltirildi. Savdo muzokaralari kredit bilan hal qilindi. XIX asrning 30-40 yillarida 28-29 ming pudga yaqin ip gazlama va yigirilgan ip Rossiyaqa eksport qilindi. 40 – yillarda Rossiyaqa paxta importi 180-200 ming rubl kumushga teng edi³⁷.

30-40 yillarda Buxoroga rus olimlari, sar qon-qarindoshlari va boshqa rus vakillari ko'chib kela boshladi. Amir Nasrullo (1826-1860) rus vakillariga o'zgacha hurmat bilan qarashini ma'lum qiladi. Amir Nasrullo Rossiya naznida kuchli ittifoqchi, do'st, va ishonchli savdo hamkorini ko'rayotganini ma'lum qilgan. 1841 – yil 20 mayda Buxorodan yo'lga chiqqan Butenev missiyasi 1841 – yil 5 – iyunda Buxoroda bo'lib, iyun o'rtalari Orenburga qaytgani aytiladi³⁸.

Iqtisodiy aloqalar tarixini o'rganishimiz davomida bizga ma'lum bo'ldiki : XVIII asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo paxtasi bu hududlardan yigirilgan ip va ip gazlama ko'rinishida olib ketilgan. G'arbiy Yevropa va Rossiya zavod va fabrikalarida tayyor mahsulot holiga keltirilib O'rta Osiyo hududiga sotilgan³⁹.

Buxorodan ko'ra Rossiya hukmdor doiralari Samarqand hududida savdo aloqalarini olib borishni afzal ko'rishardi. Savdoning rivoj topishi Samarqand bozorlarning o'zgacha ko'rinishga kelishiga olib keldi. XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida rus tovarlari xonlik bozorlarida monopol huquqida sotila boshlanadi⁴⁰. 1558 – yilda Xorazm va Buxoroda bo'lgan Ivan IV elchisi tashrif buyurdi. 1559 – yilda u bilan birga Moskvaga Buxoro va Balxdan elchilar yuborildi. Bu kabi tashriflarning asosida turli xildagi savdo muammolari yotardi. Buxoro xoni Abdullaxon Ivan IV dan buxorolik savdogarlarga Qozon, Astraxan kabi shaharlarda erkin savdo qilish huquqini so'radi. 1559 – yil kuzida Moskvaga

³⁷Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIXвв. -Указ. изд. С.147.

³⁸БайковаН.Б. К вопросу о русско-индийских торговых отношениях в XVI-XVIIвв. //Труды ИВ АН УзССР. Вып. 4. -Ташкент: АН УзССР, 1956, С.92, 94; Гольдберг Н.М. Русско-индийские отношения в XVII в. //Учен.зап. Тихоокеанского института. Т. 2. -М. -Л: АН ССР, 1949, С. 135, 147.

³⁹Путешествие барона К.Мейендорфа в Бухарию)... - Московский телеграф, 1836. С. XI. Стр. 176.

⁴⁰Пулатов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII в. /АҚД. - Ташкент, 1984. С. 26.

ikki buxorolik elchilar tashrif buyurdi. Bu elchilarga savdo huquqi berilib, o'z savdogarlari bilan Astraxanga tashrif buyurish huquqi berildi. Ivan IV tomonidan taqdim etilgan Grammotalar butun Rossiya bo'ylab savdo qilish huquqini berardi. 1563, 1566, 1583 yillarda Buxoro va Samarqandan elchilar tashrif buyurdi. Ular zimmasiga savdo munosabatlarini tartibga solish yuklandi⁴¹. 1585 – yil Buxoro xoni Abdulla Fyodr Ivanovich yoniga elchisi Muhammad Alini yubordi. O'rta Osiyo ularni shoyi mato bilan savdo qilishni monopoliya huquqi sifatida qo'lga kiritishda qiziqirdi. Ular shoyi matolarni G'arbiy Yevropaga qadar sotishni mo'ljallagan edi. 1589 – yilda Rus hukumati buxorolik elchi Do'stim va Izyurlik elchi Kadishga yurtlariga qaytishda harid qilgan mollariga soliq solinmasligini malum qildi⁴².

1634 – yil bahorida Imomqulixonning elchisi Xo'ja Otaquli sar Mixail Federovichga xon sovg'a salomlarini yetqazdi. Buning evaziga u soliqlarsiz savdo qilish huquqiga ega bo'ldi⁴³. 1644 – yilda rus hukumati mahalliy boshliqlarga bergan ko'rsatmasida o'zbeklarni izzat-ikrom bilan kutib olish hamda ularni Sibirga qiziqtirish ishi yuklandi. XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'pgina o'zbek qabilalari rus sari xizmatiga o'tgan edi. Tobolsklik Saidqul 1653, 1658, 1668-1672 yillarda Xitoyga jo'nagan rus elchilari qatorida bo'ldi. Uning mamlakatga ko'rsatgan xizmatlari yuksak baholandi. Qosimov Muhammad Yusuf 1675 – yilda Hindiston va Afgonistonga yuborildi. 1688 – yilda Yoqub Mulla Astraxanda arab tilida yozilgan barcha hujjatlarni rus tiliga ogirish bilan shug'ullandi. Yodgor Alimov bir necha marotaba O'rta Osiyoga boradigan karvonlarni kuzatib bordi. Rus elchilarning Pekindagi tarjimoni xitoy, mongol va ko'plab turk tillarini bilgan Erka Mulla bo'ldi⁴⁴.

⁴¹ Сырова Н. Новое в посольстве Бурнашева и Безносова // Звезда Востока, 1964. № 4, С.153.

⁴² Михайлова Г.А. Торговые и дипломатические связи России с Бухарским ханством через Оренбург в конце XVIII-начало XIX вв. -АҚД. -Ташкент: АН УЗССР, 1963. С. 11.

⁴³ Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX в. и русская буржуазия. М. -И: АН СССР, 1949. С. 304, 367.

⁴⁴ Умняков И.И. О хлопководстве в Средней Азии с древнейших времен до присоединения края к России/Материалы третьей объединенной научн. конф. ученых Самарканда. Серия гуманитар. и естественных наук. - Самарканд: СамГУ, 1961. С.99.

1685-1687 yillarda Irkutskda 4 ta buxoroliklar karvoni bo'lib o'tdi. 1658 – yilda Irkutskka 15 ga yaqin buxoroliklar oilalari 130 yaqin tuya bilan tashrif buyurdi. 1686 – yilda ikkinchi karvon tashrif buyurdi. Uning tarkibi 11 savdogar oilasi 172 ta tuyada 2000 rublga yaqin xomashyo bilan kelgan edi. undan keyingi yana ikki karvon juda yirikligi bilan boshqalaridan ajralib turardi⁴⁵.

1804 yilda Amir Haydarning elchisi Abdulkarim Rossiyaga tashrif buyurdi. 1806 – yilda chop etilgan rus jurnallaridan birida Rossiyada yashayotgan o'zbek shajarasi o'zining ishbilarmonligi, so'zamonligi va o'z ishini yaxshi bilishi bilan ajralib turishi aytib o'tilgan edi⁴⁶.

Alohida Sibir korpusi ofitseri F. Nazarov o'z yozishmalarida 1812 –yilda Rossiyaga Qo'qondan tashrif buyurgan Umarxon elchilari haqida aytib o'tadi. Bu vaqtda xivalik elchi Otaniyoz Muhammedov Aleksandr I huzuriga shoshilib Xiva va Rossiya munosabatlarini iliqlashtirishga urindi. 1815 va 1819 yillarda Amir Haydar elchisi Mo'minjonov Azimjon rus hukmdoridan o'z elchilarini savdo shartnomasi tuzish uchun Buxoroga yuborishini iltimos qildi⁴⁷.

1857, 1869 va 1874 yillarda Nasrullohonning elchilari bilan birga Ahmad Donish Rossiya safarida bo'ldi. Safardan ilhomlanib “Buxorodan Peterburgga sayohat” asarini yozadi. XIX asrda Rossiya yerlarida yashab ko'zga ko'ringan savdo vakillari qo'qonlik Ohunjonov Ibrohimjon, buxorolik Abdulkarimboy Safarov, Xoshalovlar oilasi, mulla Solih Do'stmametov, mullar Mirg'ulom Naqshbandi va boshqalarni keltirishimiz mumkin⁴⁸.

1870-1890 yillarda buxorolik shaxzoda Mir Said Mansur (1863-1918) Sankt-Peterburgda yashab, dastlab Pajes harbiy qismida keyinchalik Nikolay

⁴⁵Раджабов С.А. Роль великого русского народа в исторических судьбах народов Средней Азии. -Ташкент: Госиздат УзССР, 1955, С. 23-24.

⁴⁶Абрамов М.М. Из истории Самарканда конца XVIII-начала XIX в. //Тезисы докл. объедин. научн. сессии.... Ташкент, 1869, -С.33.

⁴⁷Мухаммеджанова Л.П., Мирзакулов Б.Т., Мухаммеджанова С.Ж. Дипломатические и торговые связи Бухары с Россией XVI-XVIII вв.// «Горный вестник Узбекистана» (№ 25) 2006. <http://miaiiig-bulletia.geotech.u2/ru/archive/2006/25/64>

⁴⁸Перечень товаров, доставленных из Бухары в Ярославль купцом Хаджи Ата кули (1634)// История Узбекистана в источниках. Сост. Б.В. Лунин. Ташкент: Фан, 1988. С. 65.

kavaleriyasida xizmat qildi. 1899 – yilga qadar xizmat qilib nafaqaga chiqadi va Buxoroga qaytib ketadi. Mir Said Mansur gruzin malikasi Sofe Sereteliga uylanadi. Katta o'g'li Nikolay Sereteli 1920 – yillarda Moskvadagi Tairova teatrida aktyor sifatida faoliyat yuritadi⁴⁹. U 1906 – yilda otasi bilan Buxoroga tashrif buyuradi va buvisi bilan ko'rishadi. Mir Said Mansurning ikkinchi o'gli rus armiyasi ofitseri bo'lib 1918 – yilda bolsheviklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi. Said Mir Mansurning Georgiy va Valeriy hamda Tamara ismli qizi ham bo'lgan.

O'zbek tilini ilmiy jihatdan o'rganish sharqshunos Terentev M.A tomonidan boshlab berildi. 1875 – yilda turk, fors, qirg'iz va o'zbek grammatikasini chop etdi. Olimning o'zi Rossiyada istiqomat qilayotgan o'zbeklar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'rardi⁵⁰.

Buxoro taxti vorisi Mir Said Olimxon 1893-1896 yillarda Nikolay harbiy qismida ta'lim oladi. Keyinchalik Amir darajasiga ko'tarilgan Said Olimxon Rossiya armiyasining general-leytenant unvoniga loyiq ko'riladi⁵¹.

Rossiyada yashab ijod etgan ko'plab olimlar haqida so'z yuritishimiz mumkin. Ulardan biri Ajzi (1901-1903 – yillarda Rossiyaning Sankt-Peterburg, Moskva va Povolja yerlarida bo'ladi) va XX asr boshlarida Sankt-Peterburg Tog'-kon institutini qo'qonlik Obidjon Mahmudov (1858-1936) tugatib –tog' injeneri diplomini olgan birinchi o'zbek bo'ladi. 1907-1908 yillarda Xiva xoni vaziri Islom Xo'ja boshchiligida elchilar tashrif buyurdi. Bu delegatsiya tarkibida Devonov Xudoybergan – birinchi o'zbek kinochisi va deputat Qoriyev Abduvohid qori rus hukumati vakillarida iliq taasurot qoldirdi⁵².

⁴⁹Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. № 1. С. 30.

⁵⁰Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)//ОНУз. 1984. № 1. С. 34.

⁵¹Мигалев П. Первые торговые люди Иркутска// «Капиталист» - иркутский журнал для предпринимателей № 01 (июнь 2004). <http://www.kapitalpress.ru/archive/1/120/681/>.

⁵²Цит. по: Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. № 1. С. 33.

1916 – yilda ko'plab o'zbeklar 25-iyun qaroriga ko'ra mehnat otryadlariga yuborildi. Ularning bir qismi 1917 – yil fevral voqealari ishtirokchisi va harakatlantiruvchi kuchiga aylandi⁵³.

Rossiyadagi o'zbek shajarasi orasida “sibirlik buxoroliklar” muhim o'rin tutadi. Ular G'arbiy Sibir hududiga XV-XVII asrlarga qadar kelib joylashganlar. Buxoroliklar tarkibiga o'zbeklar, uyg'urlar, tojiklar, qozoqlar va qoraqolpoqlar kirardi. Ularning ko'pchiligi bir nom bilan yuritilsada Markaziy Osiyoning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Qo'qon va boshqa shaharlaridan kelib joylashgandi⁵⁴. Aholi qatlami ham farqlanardi. Ular tarkibida tadbirkorlar, savdogarlar, din vakillari, dehqonlar, mayda hunarmandlar va ishchilarni tashkil etardi. Buxoroliklar ko'pchilikni tashkil etgani bois buxoro tili jahjasining tatarcha ko'rinishida so'zlashardi. Sibir hududiga kelib joylashgan buxoroliklar hukumat tomonidan chet ellik maqomi ostida qabul qilingan. Shu sababdan ham ular hukumat tomonidan taqdim etilgan imtiyozlardan foydalangan holda savdo aloqalarini olib borgan. Hukmdor tomonidan chiqarilgan qarorlarni so'zsiz bajarib kelgan. Sibirga ko'chirish siyosati XIV asrdayoq amalga oshirildi. Bu hududlarda vujudga kelgan Bahovuddin Naqshband (1318-1389) tariqati islomni yoyish maqsadida kirib kelgan edi. bir qancha vaqt davomida buxoroliklar o'z hududiy birliklariga ega bo'ldilar. Ular o'zlarini “buxoroliklar”, “sartlar”, “o'zbeklar” deb atashardi. Ularning asosiy yashash hududi Tyumensk, Omsk, Tomsk viloyatlari bo'ldi. Ular bu hududlarda buxorocho yashash joylarini bunyod etishdi⁵⁵.

Buxoroliklarning Sibirga ko'chirilishi ko'plab hududlarning ular tomonidan egallanishi va qayta o'zlashitirilishiga sabab bo'lganini takidlaydi. Baxurin S.V. ning takidlashicha dastlabki koloniyalar Sibir hududida bo'lganligi aytiladi.

⁵³ «Записки о некоторых народах и землях Средней Азии» Филиппа Назарова (1813-1814)// История Узбекистана в источниках. Ташкент: Фан, 1988. С. 162,163

⁵⁴ Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Душанбе Ирфон, 1960. Вахидов Х.П. Просветительство в Туркестане в XIX начале XX веков// Основы философии. Ташкент, 1908. С. 165-171.

⁵⁵ Хайретдинов Д. Узбеки, узбекская община в Москве и Подмоскowie// Ислам в Москве. Н. Новгород, 2008. С. 274-276.

XVI asr oxirlaridan boshlab ruslar va buxoroliklar savdo munosabatlarida iliqlik kuzatildi. Buxoro karvonlari Tar, Tobolsk, Tyumen, Tomsk, Krasnoyarsk, Irkutskga qadar yetib boradigan bo'ldi. Chet ellik sayohatchilarning takidlashicha, har bir rus har yili Tatarlar yurti Tyumenga tuyalarda keladigan buxoroliklar karvoni bilan savdo qiladi⁵⁶.

1718 – yilda o'zbek I. Usmonov Tobolskda Qozoq xonining elchilik varaqasini tarjima qildi. Tarlik tatarlar hududida buxoroliklarnind o'z volosti bo'lganligi va aynan buxoroliklarga qarashliligi aytiladi. XVIII-XIX asr aholini ro'yxatga olish kitobida aytilishicha buxoroliklarning shajarasini Rossiyaning har bir hududidan topishganligi aytiladi. XVIII asrda Tar hududi uch qismga Paxarsk (buxoroliklar), Ayalinsk (sibirlik tatarlar), Porushna (mahalliy tatarlar-davlat dehqonlari) ga bo'lingan edi. Tomilova N.A ning ma'lumotiga ko'ra G'arbiy Sibirda qayd etilgan ro'yxatga olishda 1370 tatar, 1218 ta buxoroliklar va boshqa millat vakillari mavudligi qayd etilgan. Undan tashqari sibirlik tatarlar orasida shunday qabilalar borki ularning ildizlari “sartlar” yoki “buxarlar” ga borib taqalishi qayd etilgan⁵⁷.

Sibirga ko'chirilgan buxoroliklar o'zlari uchun yangi bo'lgan mahalliy sharoitlarga ko'nikish hamda savdodan tashqari yer bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yinshni amalga oshirishardi. Yirik yer egaligining ko'rinishlari asosan Tyumenda kuzatildi. 1701 – yilda 126 desyatina yerning narxi qoramolga hamda 77 desyatina bug'doy narxiga teng edi. Tarada esa farqlanib 50 desyatina lalmikor va 75 desyatina sholikor yerlar edi⁵⁸.

Bazida izlanuvchilar tomonidan ba'zi xatolarga yo'l qoyilar edi. Yaponlar ma'lumotnomasida SSSR tarkibidagi Sibir xalqlari tarkibi xato ko'rsatilib unda

⁵⁶Гаспринский И. Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского., Казань, 1894; Искандаров Б.И., Бухара (1918-1920), Душанбе, 1970. С. 62-63; Назаров Р.Р. Сеид Мир-Мансур // Ислам в Санкт-Петербурге. Серия «Ислам в Российской Федерации». Вып. 3. М. - Н. Новгород; И.Д. Медина, 2009. С. 209-210.

⁵⁷ Назаров Р.Р. Махмудов Абиджан Абдухалик-оглы// Ислам в Санкт-Петербурге. Серия «Ислам в Российской Федерации». Вып. 3. М. - Н. Новгород. - ИД Медина, 2009. С. 126.

⁵⁸ Киреева С. Окно в новое прошлое// АиФ (Москва), № 13 (611) от 30 марта 2005 г.; НормухаммедовИ. Нашему кино 100 лет//газ. «Класс», № 31. 3.09.2008 г.

barabin-tatarlar, g'arbiy sibirlar, sibirlik tatarlar (tobol tatarlari va sibirlik buxoroliklar) va boshqalar⁵⁹.

Sibir tatarlari bilan boshqa xalqlarning etnomadaniy aloqalari asosan ularning kiyimlari va taqinchoqlarida ko'zga tashlanadi. Buxoro komponenti erkaklar kiyimi bo'lgan xalat va chalmada namoyon bo'ladi. Sibir tatarlaridagi ushbu xalatlarning kelib chiqishi markaziyosiyodan hisoblanib, chopon (Markaziy Osiyodagi singari) deb nomlanadi⁶⁰. Sifatli erkaklar qishki kiyimlari bo'lgan shuba va mo'ynali shapkalardan foydalanishadi. Sibir tatarlarining yuqori kiyimi belbog'li mato pilbau bo'lib (o'zbekcha belbog') ayollar belbog'i "kur" deb nomlangan. Erkaklarning asosiy bosh kiyimi hisoblangan turli xil qalpoqlar esa, tamburli yoki tillo rangdagi chiziqli bezaklar bilan bezatilgan yoki rasmlı matolardan foydalanishgan⁶¹.

Sibirdagi buxoroliklar tarkibida qozoqlar ham bor. Qizig'i shundaki, deyarli barcha qozoqlar "pukar" atamasi bilan nomlanishadi ("buxoro" ga yaqin). "Qashshoq" tashlandiq ma'nolarini anglatadi. Qozoqlarning sibir buxoroliklari tarkibiga kirishiga yordam berishi ham mumkin. Bu ijtimoiy atama keyinroq xudda etnik o'zlikni anglash bilan almashingan bo'lishi taxmin qilinadi⁶².

Sibir buxoroliklari bir-necha yuz yil davomida tatarlar bilan iqtisodiy, madaniy va oilaviy nikox aloqalarini qo'llab-quvvatlab kelishgan. Natijadagi yagona komponentlardan biri zamonaviy sibir tatarlari vujudga kelganligidir⁶³. Rus buxoro savdogarlari kelguniga qadar, Sibirda markaziyosiyo tovarlari savdosi qizg'in olib borilgan. Aynan ular Tyumen, Tobolsk, Tarda teri ishlab chiqarish va gilamchilik ishini yo'lga qo'yishganlar. Buxoroliklar hisobidan yirik sibir tadbirkorlik oilalari kelib chiqqan (Aykinlar, Mirsalimovlar,

⁵⁹Зияев Х.З. Средняя Азия и Сибирь (2 пол. XVI •- XIX вв.). Ташкент, 1964. С. 76.

⁶⁰Усманова Л. Тюрко-татарская эмиграция в Северо-Восточной Азии начала XX в. // Гасырлар авазы - Эхо веков. 2005. № 1

⁶¹Линденау Я.И. Описание народов Сибири. Магадан, 1983.

⁶²Томилов Н.А., От Урала до Енисея (народы Западной и Средней Сибири). Томск, 1995.с.36

⁶³Валеев Ф.Т. Сибирские татары: культура и быт. Казань, 1992.с.95

Saydukovlar, Chenbaevlar va boshqalar). Inqilobga qadar ular yirik ichki va tashqi savdo bilan shug'ullanishgan⁶⁴. Ko'pchilik oddiy buxoroliklar dehqonchilik, chorvachilik va turli xil hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

SMI da ta'kidlanganidek: "Sovet davrida Moskva, Leningrad, va boshqa yirik shaxarlar aholisi orasida o'zbeklar ko'pchilik bo'lishgan"⁶⁵. 1921 yil Movkvada Buxoro madaniyat uyi ochilgan. Shular qatorida turli xil ta'lim kurslari ochilgan. Bunga o'zbek teatr studiyasi ham kiradi.

Rossiyada o'zbek diasporasi sovet davrida ham nafaqat ziyolilar, balki ishchi va dehqon bilan borg'langan. Mutaxassis-demograflarning ta'kidlaganlaridek : "O'zbekistonda mexnat migratsiyasi doimo ichki hisoblangan ..., shuningdek SSRI ning boshqa respublikalari singari. Oxirgi tashkiliy formasi (Qozog'iston va boshqa erlardagi mexnat "vaxtalari", ijtimoiy chaqiruv bo'yicha Sovet Ittifoqidagi yangi qurilishlardagi ishlar, orgishchi kuchi va boshqalar),shuningdek tashkiliy ahamiyatga ega bo'lmagan (asosan, poliz maxsulotlari savdosi)⁶⁶". XX asrning 60-70 yillarida Rossiyaning markazida ijtimoiy-demografik murakkab vaziyatni iqtisodchi A.L.Andreev ta'kidlaganidek, "o'zbek va tojik dehqonlarining Rossiya erlariga ko'chib kelishi bu erda ishchi kuchining taqchilligini keltirib chiqardi"⁶⁷.

Sverdlovsk viloyatidagi o'zbek diasporasi vakili Yu.Islomov 1988 yil afg'on dushmanlariga qarshi kurashdagi qaxramonligi uchun Sovet Ittifoqi Qaxramoni unvonini olgan (o'limidan so'ng)⁶⁸.

O'zbek adabiyoti vakili Shamshod Abdullaevning nashrlari Rossiyada ba'zida chiqib turgan.Bu rus tilida bo'lib, Sh.Abdullaevga bu o'zbek

⁶⁴Ключева В. П. Использование генеалогических данных при изучении социальной истории (на примере выявления родственных связей сибирских бухарцев кон. XVII ~ нач. XVIII вв.) //Вторые Тюменские родословные чтения. Тюмень, 2002. С. 103-104.

⁶⁵«Известия», 16 мая 2005 г.

⁶⁶Тюрюканова Е. Трудовая миграция в России// Журнал «Отечественные записки». 2004, №4;

⁶⁷ Андреев АЛ. Экономический механизм и историческая жизнь нации// Философия хозяйства. Альманах Центра общественных наук и экономического факультета МГУ. 1999. №2

⁶⁸Исламов Ю.В.// Герои Советского Союза. Краткий биографический словарь. Т. 2. М.: Воениздат, 1988. С. 842.

mentaliteti bilan uchrashish uchun ideal g'oyaviy daxlsiz makon edi. Ushbu ajoyib eksperiment Rossiyada she'riyat senzura ostida emasligi natijasi edi. 1990 yillar boshida Sh. Abdullaev doimiy ravishda "Mitin jurnali" ga mualliflik qilgan. 1992 yil "Mitin jurnali" da uning "Masofa" nomli kitobi chiqdi. Shundan o'zining kitobiy seriyasini boshlagan. 1993 yil esa, Sh. Abdullaev senzura ostida bo'lmagan rus adabiyotining e'tirof etilgan oliy belgisi- Andrey Beliy mukofotini qshlga kiritdi.

O'zbekistonda Rossiya Federatsiyasining 77 ta sub'ektlari faol hamkorlik qilmoqda. Ayni shu regionda ajralib turadigan alohida faolligi o'zbek diasporasining harakatidir. O'zbekiston viloyatlarida 40 ga yaqin, Rossiyaning turli regionlarida esa 15 ga yaqin savdo uylari ochilib, faoliyat yuritmoqda. 10 yil davomida (1999-2009 yy.) 100 ga yaqin o'zbek talabalari ta'lim soxasidagi o'zbek-rus hamkorligi doirasida 1000 ga yaqin o'zbek talabalari bepul ta'lim olish stipendiyasini qo'lga kiritishgan. Faqat 2007-2008 o'quv yilida O'zbekiston vakillari 180 ta stipendiya egalariga aylanishgan⁶⁹.

Ikki tomonlama kelishuv etnik ozchilik maqomi borasida olib borilgan. 1992 yil 30 may kungi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik va do'stlik, davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi Bitim⁷⁰ning 7-moddasida aytiladi: "Tomonlarning oliy darajadagi kelishuvi milliy ozchilikni tashkil etuvchi kishilar huquqini, himoyasini kafolatlaydi va erkin ravishda o'z etnik, madaniy, milliy va diniy xolatini saqlab qolishini ta'minlaydi, zo'ravonlik asosidagi assimilyasiyaga yo'l qo'yilmaydi"⁷⁰.

1992 yil 18 dekabr kungi "milliy va diniy ozchilik, etnik masalaga taalluqli, shaxslar huquqi tug'risidagi Deklaratsiya" ning 1-moddasida ayni xolat o'z isbotini topib, unga qo'yidagilar: "Davlat ularning milliy, etnik birligi,

⁶⁹МуталовДж. Узбекистан-Россия: по пути укрепления взаимовыгодного сотрудничества // <http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/internationalnews/554.html>

⁷⁰Договор об основах межгосударственных отношений, дружбе и сотрудничестве между РФ и РУз// Действующее международное право. Т. 1. М., 1999. С. 115-116.

xududiy, madaniy, diniy manfaatlarini himoya qiladi va buning kelgusi rivojini tashkil qiladi”⁷¹.

⁷¹Декларация о правах лиц, принадлежащих к национальным или этническим, религиозным и языковым меньшинствам// Действующее международное право. Т. 2.М., 1999. С. 91.

2.2. Rossiya- O'rta Osiyo munosabatlarining siyosiy jihatlari

Soʻz asosan SSSR ning birinchi va oxirgi prezidenti M.S.Gorbachyov va Rossiya Federatsiyasining birinchi prezidenti B.N.Yelsin, ularning Rossiya zamonaviy tarixiy taraqqiyotidagi oʻrni, dunyodagi yirik derjavaning boshligʻi sifatidagi ijobiy va salbiy faoliyati haqida bormoqda. Ular haqida unutilmas tarix, noqulaylik va murakkablik gapiriladi va yoziladi, ammo bu muximdir. Ish shunday tus oladiki, ularning qachonlardir davlatning birinchi raxbari sifatida ishlaganligi haqida koʻp marotaba yoziladi va ular haqida “yetakchilik faoliyati, dunyo taraqqiyoti jarayoniga taʼsiri” haqida eshittirishlar tashkil qilingan.

Chorizm tomonidan bosib olingach millat va xalqlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kirganligi maʼlum va bu hech bir bahsga muhtoj emas. Xudud sovet ittifoqiga qoʻshib olingach uzoq va asoratli oʻtmish boʻlgan. Ammo iqtisodiy va maʼnaviy taraqqiyot oʻziga xos yoʻlda boʻlganligi ham taʼkidlanadi. Sanoat taraqqiyoti takomillashib, old madaniyat yangi darajaga etganligi aks etsa-da, ilgari ulardan baʼzilari hatto yozma koʻrinishga ham ega boʻlmagan⁷².

Barcha millat va xalqlar, buyuk Rossiya tarkibidagilar kiruvchilar oʻsha vaqtda SSSR aholisi deb nomlanishgan. Davlatning mudofaa tizimini mustaxkamlash, erkinligi va ozodligini tashqi dushmanlar yurishidan asrashda ishtirok etishganlar.

Bu oʻz vaqtida M.S.Gorbachyovning “Qayta qurish va bizning mamlakat va butun dunyo uchun yangi gʻoya” nomli kitobida eʼtirof etilgan (1987). Kitobda u qoʻyidagicha yozadi: “Agarda respublikalarning amalda tenglashuvi amalga oshmasa, birodarlik, hamkorlik, hurmat va oʻzaro yordam vujudga kelmasa bizning davlat saqlab qolinmaydi”.

⁷² Ахмеджанов Г. Россия и Центральная Азия. Взаимосвязь в историческом развитии. М-Т, 2008. с.6

Bularning barchasi shunday va o'zgacha xolatda ham sodir bo'lgan. 1986-1988 yillardagi inqiroz millatlararo munosabatlarni izdan chiqardi. Ayni vaqtda sovet hukmron elitesiga KPSS MQ bosh kotibi M.Gorbachyov boshchilik qilar edi.

Ammo SSSRda milliy masala o'z echimini topishiga ishonish davom etardi. Ushbu vaziyatda ijtimoiy islohotning muhim va real ahamiyati milliy ziddiyatlarga qaratilardi. 1987yil o'rtalariga kelib, millatlararo munosabatlar masalasi Politbyuroning kun tartibidan chiqmasdi. Ammo Siyosiyobyuroning majlislarida "turmush va tarix muammosini ko'rish masalasini qoldirish" masalasi hukmronlik qilardi. Bu xuddi qrim-tatarlarni tarixiy vataniga qaytarish kabi sodir etilardi. Qayta qurish jarayoni jiddiy qaralsada, ko'plab milliy muammolar bilan bir qatorda SSSRning milliy-davlat tuzilishi masalasini qamrab olgan emas. Ilgarigidek, ittifoqning milliylikdan tashqarida bo'lgan hokimiyat markazi respublikalar hayotining barcha tomoni- atom elektrostansiyalar qurilishidan to shirinlik va konfet retsepturasigacha bo'lgan masalalarni qamrab olgan.

1980 yillar o'rtalarida KPSS oliy rahbariyatining tutgan yo'li simptomatik ahamiyat kasb etgan. "Kommunizm sof targ'ibot bo'lgan,- deb e'tirof etgan M.S.Gorbachyov.- Biz va shu qatorida men, degan edi shunda, kapitalizm o'z domiga tushadi, bizda esa buning teskarisi"⁷³. Albatta, toza suv targ'iboti bo'lgan, ammo bizning mamlakat esa ishonchsiz bo'lib qolmoqda"⁷⁴. M.Gorbachyovning so'ziga qaraganda, u hokimiyatga kelgan vaqtida oliy rahbariyat yuqori siyosat bilan birga "tish kukuni, kir yuvish kukuni muammosini muxokama qilgan va ayollarning ichki kiyimini hal qilish uchun Siyosiybyuro maxsus komissiya tashkil qilgan". An'ana bo'yicha M.Gorbachyov ushbu talabnomani o'z vatanida emas, balki Nyu-Yorkdagi

⁷³ Боханов А.Н., Горинов М.М., Дмитренко В.П. История России. XX век. в 3-х книгах. Книга III. М, 2001. с.336

⁷⁴ O'shajoyda.b.7

Kolumbiya Universitetida ma'lum qilgan. M.Gorbachyovning ma'ruzasi uchun 70 ming dollar to'langan⁷⁵.

M.S.Gorbachyov bunday gonorarni o'zining oliy amaldorlik mavqeidan maxrum bo'lgach qo'lga kiritish boshladi. Mana yana bir guvohlik mavjud : M.S.Gorbachyov jurnalist bo'lgan. SSSR ning eks-prezidenti AQSH, Lotin Amerikasi, Osiyo va Yevropa gazetalaridagi oylik axborotlarga mualliflik hissasini qo'shib borgan. Bu Gorbachyovning hamkorlikdagi loyixasi va New York Times Syndikation korporatsiyasi bo'lib, eks-prezidentning matnlari yuzga yaqin gazetalarda yoyilgan. Analogik loyixa 90 yillar oxiridayoq ishlab chiqilgan edi. Korporatsiya harakterli bo'lib, Gorbachyovning to'plamlarini aniqlashtirib, SSSR eks-prezidentining “ Argumenti va fakti” nashridagi yordamchisi Vladimir Polyakovga xabar qilgan⁷⁶.

Qayta qurish yillarida hech bir qaynoq no'qta optimal qarorini namoyish qila olmadi. Etnik ziddiyatlarga bag'ishlangan ishonchli mexanizm ishlab chiqilmadi. Hokimiyat ilgariidek jiddiy paydo bo'ladigan jarayonlar haqida hisobot bermasdi. Milliy masalaga yangicha yondashuv ishlab chiqilmadi. Hokimiyatning barcha atributlari bo'yicha Ittifoq ilgariidek “ yagona va bo'linmas” davlat bo'lib qolaverdi.

1988 yil oxiridagi Tog'li Qorabog' voqealari tufayli Armaniston va Ozarbayjon amalda bir-biriga qarshi urush xolatiga kelib qoldi. Barcha tomonlari bilan yangi g'oyaning defitsit ekanligi, markazning Ittifoq manfaatlarini himoya qila olmasligi ma'lum bo'lib qoldi. M.Gorbachyovning Ozarbayjon va Armaniston xalqiga qilgan bevosita murojaati o'zaro dushmanlikni to'xtata olmasdi.

Bolliqbo'yi respublikalari ortidan suverenitet masalasi 1990 yil ko'zida mahalliy hokimiyat organlariga bo'lib o'tgan saylovda asosiy bo'lib qoldi. Agar bir yil oldin Ittifoqdan ajralib chiqish haqida biror-bir so'z bo'lmasa,

⁷⁵ М. Горбачев вводил в заблуждение советский народ // Независимое обозрение. 2002. № 9. С. 2

⁷⁶ Экс-президент СССР стал американским журналистом // Аргументы и факты. 2007. № 3. Январь

endi SSSR tarkibidan chiqish va o'z-o'zini to'lik mustaqil boshqarish harakati xalq tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu jarayon boshlanishida Kavkaz regionida qonli voqealar bo'lib o'tdi. Tog'li Qorabog', Farg'ona, Dushanbe, Suxumi, Tbilisi (1989) voqealari eslatib o'tilganidek – bunday geografik joylarda millatlarning qonli to'qnashuvlari sodir bo'lib, ko'plab kishilarning hayotiga zomin bo'ldi⁷⁷.

M.S.Gorbachyovni yon berishga olib kelish uchun uning raqiblari birinchidan Sovet Ittifoqini tarqatib yuborishdi. Ikkita qondosh slavyan respublikalari – Ukraina va Belorusiya o'zaro kelishuvga asosan – ittifoq tarkibidan chiqishdi. Tenglar ichida ikkinchi va uchinchi bo'lib chiqishdi, qolganlari esa o'z tarixiy mustaqillik yo'lidan borishdi⁷⁸.

Imperiyalarning yadroviy hukmronligi nihoyasiga etdi. Bu bilan birgalikda jaxon sotsializm tizimi emirilib bordi: 1989 yil 9 noyabr kuni Xonekker boshchiligidagi GDR hukumati emirildi va aynan ushbu kuni mashhur Berlin devori qulatildi. Bu 20 yil davomida shaxarni ikkiga bo'lib turgan edi. 1989- 1990 yillar sotsialistik mamlakatlardagi Gorbachyov yo'lidagi yangicha yondashuvning barcha jiddiy tomonlari ma'lum edi. Bu vaqtda Sharqiy Evropa mamlakatlarida inqilob to'lqini yuzaga keldi. Jarayon Polshada boshlanib, 1989 yil "Solidarlik" kasaba ittifoqi mustaqil ravishda hukumatdan ajralib chiqishdi. So'ngra muxolif kommunistik rejim kuchlari Chexoslovakiya, Vengriya va Bolgariyada hukumat bilan tinchlik yo'lida muzokaraga kirishdilar. Faqat Ruminiyada Chaushesku rejimi qurolli yo'l bilan yo'q qilindi. SSSRning xalaqit qilmaslik siyosati natijasida Sharqiy Evropada totalitar rejim barbod bo'ldi. Bir qancha vaqt o'tgach, Varshava shartnomasi tashkiloti ham tugatildi⁷⁹.

⁷⁷ Боханов А.Н., Горинов М.М., Дмитренко В.П. История России. XX век. в 3-х книгах. Книга III. М., 2001. с.338

⁷⁸ Терещенко Ю.Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д, 2004. с.351

⁷⁹ Века. А.В. История России с древнейших времен до наших дней. Минск, 2006. с.277

Ilgarigi ittifoqchilarisiz SSSR yangidan shakllanishi mumkin emasdi. Sovuq urush tugadi. Ammo NATO tarqatilgan emas. M.Gorbachyovning uzoq yillik siyosatining achinarli natijasi va SSSR ning izolyasiya qilinishidan so‘ng, Sharqiy Evropada boy berishi yuzaga keldi⁸⁰.

Gorbachyovcha qayta qurishga barcha tomondan xolisona baxo berishning davriy masofasi oxiriga etgan emas. “Istoriya Rossii..” da haqli ravishda ta’kidlanganidek, jarayonning boshlanish davri haqida tarixiy materiallar kam⁸¹.

Asosiy voqealar Moskvada bo‘lib o‘tdi. 1991 yil 21 avgust kuni jarayon bostirildi. SSSR prezidenti esa bu vaqtda Forosda dam olishda edi. Poytaxtga qaytgach, bevosita aeroportdan turib, Rossiya prezidenti B.Yelsin nomiga minnatdorchilik so‘zlarini yo‘lladi. M.Gorbachyov tomonidan B.Yelsinga ilgariyoq ishonchsizlik bildirilgan bo‘lsa-da, endi unga o‘zaro hamkorlik taklif qilgandek edi. Vaziyatni tan olmasa Gorbachyovga xotirjamlik berilmasligi Rossiya prezidenti tomonidan ma’lum qilingan. Vazirlari tomonidan ham tan olinishi kerak bo‘lgan⁸².

To‘g‘ri, M.Gorbachyovning o‘zi GKCHP faoliyatini inkor etdi. GKCHP ishi Forosga (Qrim) tezda etib borgan edi. Bu erda turmush urtog‘i Raisa Maksimovna bilan dam olayotgan edi⁸³.

SSSR KGB ning sobiq raisi V.Semichastniy buning notug‘ri ekanligini tasdiqlaydi. 2000 yil oxiridagi “Yangiliklar olami” muxarririyati muxbiriga bergan intervyusida qo‘yidagilarni ma’lum qilgan:” Gorbachyov ikki yoqlama o‘yin olib bordi: GKCHP dan xabardor bo‘lib, hatto biz bilan birlashishga tayyor edi. Ammo hech nimaga erishib bo‘lmasligini bilgach, o‘z pozitsiyasini

⁸⁰ O‘shajoyda.b.14

⁸¹ История России. С начала XIX до начала XXI века / Под ред. чл.-корр. РАН А.Н. Сахарова. М.: Институт российской истории РАН, 2005. с. 179

⁸² Терещенко Ю.Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д, 2004. с.360

⁸³ Боханов А.Н., Горинов М.М., Дмитренко В.П. История России. XX век. в 3-х книгах. Книга III. М., 2001. с.345

o'zgartirdi. Qamoqqa olinsa-da, uni qo'riqlashgan, barcha telefonlari ishlab turgan, kim bilan lozim bo'lsa u bilan bimalol bog'lanishi mumkin edi"⁸⁴.

Endi M.Gorbachyov voqealar rivojiga hech qanday ta'sir ko'rsata olmasligi aniq bo'lib qoldi. B.Yelsin hokimiyat uchun kurashda raqiblarini chetlata oldi. Yangilik haqida AQSH prezidenti Djordj Bushga xabar qildi.

Ikki xaftadan so'ng MDH tashkil topganligi haqidagi Alma-Ata kelishuvi va Deklaratsiyasi imzolandi. 1991 yil 25 dekabr kuni SSSR ning BMT dagi a'zolari tugatildi. Kelgusi kuni esa, M.Gorbachyov o'z karerasiganuqta qo'ydi!⁸⁵.

Yuqorida ta'kidlanganidek, M.Gorbachyovning KPSS MQ bosh kotibi lavozimidagi siyosiy va davlat faoliyatiga barcha tomondan xolisona baho berish va qayta qurishning dastlabki bosqichiga etarlicha masofa mavjud emas va bu tarixiy materialni tashkil qilmaydi. Yaqinda M.Gorbachyov Moskvada xususiy muzeyini tashkil qildi: "Gorbachyov-fond" binosida "Mixail Gorbachyov : hayot va isloxotlar" ekspozitsion markazi ochildi. Muzeyga birinchi tashrif buyurganlar maktab o'quvchilari edi, 2006 yil mart kunlaridagi ta'tilga tug'ri kelgan..."⁸⁶

150 kvadrat metr maydonda xujjatlar, buyumlar, fotografiyalar, medallar va sovg'alar o'rin egallagan bo'lib, ular M.Gorbachyovga tegishlidir. Bundan tashqari stendlarda voqealar yozilgan va ularda M.Gorbachyov ishtirok etgan⁸⁷. Kolleksiya eksponatlari orasida – eks prezidentning Nobel laureati bo'lganligi diplomi ham bor. SHuningdek bosh sekretarligi va prezidentligi guvohnomasi, mehnat kitobchasi saqlanadi. Gorbachyovning butun mehnat faoliyati, hatto ruchkalari bo'lib, bu orqali u AQSH eks-prezidenti Ronald Reygan (o'z vaqtida SSSR "yovuzlik imperiyasi" deb atalgan) bilan xalqaro

⁸⁴Горбачев М. Понять перестройку... М., 2006. С. 333-336).

⁸⁵Семичастный В. Монстра сделали беззубым / интервью А. Колобова // Мир новостей, 17 января 2007 года. № 5 (683).

⁸⁶Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.122

⁸⁷Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.129

bitimlarni mizolagan.Ekspozitsiyasini to'ldirish uchun etarli bo'lmagan faraon-xudo unga uzoq umr berishi- salomlashayotgan M.Gorbachyovdir⁸⁸.

Endi Andrey Pavlovning M.Gorbachyov haqida bergan intervyu-o'z reklamasini o'qiymiz.2006 yil 19 iyul kuni "Mir novostey" gazetasi № Qanday aytgan, a?!": " Ha, haqiqatan ham Gorbachyoning munosabatini aniqlash qiyin, " Yevroremont" da SSSR "qayta qurish" ostida barchasini ko'rsatdi : mamlakatning bo'linishi, ko'p sonli urushlar,buyuk mamlakatning turli burchaklarida sodir bo'lganligi...-yana eslash lozimki, biz qanday darajada aqlli bo'lganmiz? O'sha vaqtdagi KGB boshlig'i Bakatin ma'lumotlari, AQSH elchixonasidagi xolatlar! Hatto eslash achinarlidir.. Florida botqoqlaridagi qurbaqa-o'z kulgisi bilan qarshilaydi⁸⁹.

Yangi va Eng yangi tarixdan ma'lum bo'ladiki, hech bir davlat boshlig'i hokimiyatdan ketganidan so'ng, masalan Napoleon, Sharl de Goll, Cherchill,Margaret Tetcher va hatto sharmanda bo'lgan Muxammad Rizo-Shox ham bunday tushkunlik va reklama xolatiga Gorbachyov singari tushmagan⁹⁰.

"Dunyo yangiliklari" dan yana bir misol. Avgust oyi boshlarida "Forbs" jurnali rus tili versiyasida eng qimmatbaxo va mashxur sportchilar,musiqachilar, yozuvchilar va top-modelerlar ro'yxatini nashr etishdi. Reyting bo'yicha birinchi o'rinda – mashxur tennisistka Mariya Sharapova o'rin egallagan bo'lib, uni ng daromadi 23 million dollarni tashkil qiladi.Bu daromadlarni u sportdagi yutuqlari va reklamadan olgan⁹¹.

Rossiya Federatsiyasida elsin davri boshlandi,uning asosiy a'zolari kechagina qudratli imperiya- SSSRning faolari bo'lishgan.Ushbu davr 1999 yil oxiriga qadar davom etdi,Ungacha Elsin 1996 yil ikkinchi bor Rossiya Federatsiyasi prezidenti lavozimiga saylangan.Ushbu elsin davri butunlay

⁸⁸Новые Известия. 2004. 31 марта — 6 апреля. № 55

⁸⁹Мир новостей.2006.19 июля.№49 (656)

⁹⁰Века.А.В.История России с древнейших времен до наших дней.Минск,2006.с.285

⁹¹Соловьева М. Удастся ли Горбачеву переплюнуть Шарапову? // Мир новостей. 2007.29 авг. №37(715)

(prezidentlik) to‘qqiz yil davom etdi. Voqealarga boy bo‘lib, qiyin davrlar ham boshdan kechirilgan.1991 yilgi GKCHP ning avgust voqealari, 1993 yil oktyabr voqealari albatta B.Elsinni Rossiya Federatsiyasi prezidenti lavozimidan zo‘rluk bilan ketgizishga ham qaratilgandir.1998 yil Chechen urushi bo‘lib o‘tdi⁹².

90 yillar Yelsin davri tashqi siyosati qanday edi, yoki uning ichki xolatlari bilan bog‘liqligi, Amerika olididagi yutuq yoxud mag‘lubiyatlar muhimdir.Aleksey Pankin maqolasi keltiriladi : “Yelsin yaqinda o‘z kitobida “Kreml.Kasallik tarixi” Aleksandr Xinshteyn, bunda Strouba Telbottaning memuariga yo‘naltiriladi. Stroub Telbotta rossiya ishlari bo‘yicha demokrat-prezident Klintonning bosh maslaxatchisi bo‘lib, mana shunday epizodlar keltirilgan.1996 yil oktyabr oyidagi Rossiya-Amerika sammitida amerika prezidenti tushlikda tashqi siyosiy maslaxatchi Dmitriy Ryurikovni chetlatishga harakat qilgan.Elsin uchun tezda yon berish muximroq bo‘lgan. Ryurikov fakt oldida turgan: qaror qabul qilingan”⁹³.

90 yillar Elsin davri haqida so‘z yuritganda, muallif BMT egidasi ostida muqobil xalqaro konsilium tashkil qilishni taklif qilgan. Ishonardiki : u o‘zgarmas davrni tan oladi”, aynan boshidan haqiqiy emasligi ilgari surgan⁹⁴.

1980 yillar boshida Leningradda iqtisodiy seminar ish boshlagan, unda liberalizm g‘oyasi ilgari surilgan.Unda jamoatchilikka tanish bo‘lmagan Chubays, Mau, Boyko va boshqa isloxot bayroqdorlari ishtirok etishgandi.Rossiya “liberal-reformatorlari” turmushni neomaltuzian davri bilan taqqoslashni qabul qilishgan. Keyingi faktlar haqida ham gapirishgan⁹⁵. V.Polevanov Elsin davrida qisqa vaqt Rossiya hukumatining vitse-prezidenti bo‘lib ishlagan va qo‘yidagicha yozadi :Men Davlat Mulk Boshqarmasiga kelganimda strategiyani o‘zgartirishga harakat qildim.Milliy boylik tashkil

⁹²Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.139

⁹³О‘shajoyda.b.24

⁹⁴Панкин А. К обнулению 90-х.// Известия. 2006.16 июня.

⁹⁵Катальников В.Д., Кобяков АЛ Уголь и шахтеры в государстве Российском. Экономический и социально-исторический аспекты. М., 2004. С. 130).

qilingach, o'z ulushini olishga kirishadi. Chubays menga ochiq matn bilan chiqqan : “Siz nima uchun bunday kishilardan qo‘rqasiz? O‘ttiz million haqida ketmoqda.Ular bozor haqida yozishmagan. Bu xaqida o‘ylamang- yangitdan o‘sib boradi...”⁹⁶.

Ammo prezidentlik yillarining oxirgi murakkab davrida, 1999 yil B.Yelsin o‘ziga haqiqiy davomchini qidira boshladi.Bu uning Gorbachyovdan farqli tomoni edi Bu xolat 1999yil 9 avgustga qadar davom etdi. Premer ministr vazifasini bajaruvchi V.Putin mamlakatda televizion murojaat bilan chiqib,prezidentlik lavozimiga kelgusi muddat uchun nomzodini qo‘yishini ma’lum qildi.

Prezidentlik saylovida ko‘tilmaganda B.Yelsin 1999 yilning oxirgi kunlarida Rossiya prezidenti lavozimi va vakolatlarini ixtiyoriy ravishda premer-ministr Vladimir Putinga topshirishini e’lon qildi⁹⁷.

Ish shunday tus oldiki, sovuq urush munosabatlaridan yangi davrga o‘tishda M.Gorbachyov bilan E. Shevardnadze, so‘ngra B. Yelsin, G. Burbulis, K. Kozirev o‘ziga xos xazil bilan murojaat qilishganlar.Sovuq urushdagi kechagi dushmanlariga ishonch bildirishgan. Natijada SSSR, so‘ngra Rossiya hech bir yon berishsiz katta yo‘qotishga duch keldilar.Ushbu boy berishlar ikkinchi jahon urushida mag‘lubiyatga uchragan Germaniya va Yaponiyaga nisbatan ham katta miqdorni tashkil qilgan.Ushbu natija 80 yillar oxiri SSSR ga bogshchilik qilgan M.Gorbachyov va 90 yillar boshida Rossiyaga raxbarlik qilgan B.Yelsin raxbarligi davriga tug‘ri keladi. Sovet qo‘shinlarining Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan olib chiqilishi, unga tayyor emasligini qanday tushuntirish mumkin, Mudofaa bazasi va katta moddiy qimmatliklar yo‘qotildi.”Saxalin-1” va “ Saxalin-2” va boshqa bitimlarni ko‘rsatib o‘tish mumkindir. NATO qo‘shinlari o‘z xarakatini davom ettirishgan⁹⁸.

⁹⁶Терещенко Ю.Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д,2004.с.362

⁹⁷Акмалова АА., Капицын ВМ., Панкова ЛЯ Политология. Вопросы и ответы. М., 2004.с.115-116.

⁹⁸Медведев Р. Владимир Путин: второй срок. М., 2006. С. 219.

Mashxur tarixchi va publitsist Roy Medvedev gorbachyov-Yelsin davridagi tashqi siyosat bilan bog‘liq voqealarni taxlil qildi. Haqli ravishda ta’kidlaydi : “ Oldindan o‘ylangan hamkorlik bir tomonlama yon berishning natijasi emas, biz buni M.Gorbachyov, E.Shevardnadze, B.Yelsin va A.Kozirevlar faoliyati natijalarini ko‘rishimiz mumkin”⁹⁹.

Gorbachyov-Yelsin mamlakatni barqaror demokratik taraqqiyot yo‘lidan olib borishi qanday tugallanishi mumkin edi? 80 yillar oxiri – 90 yillardagi isloxotlar birinchi navbatda qobiliyatsizlik, ijodiy yondasha olmaslik, uzoqni ko‘ra olmaslik ko‘zga tashlanib qoldi. Aynan qobiliyatsiz kishilar boshqaruvi natijasi deb xisoblanadi¹⁰⁰.

V.Putin kim bo‘lgan? U 1952 yil Leningrad (qo‘yi Sankt-Peterburg)da oddiy ishchi oilasida tug‘ilgan. 1970 yil maktabni tugatgach, birinchi urinishi Leningrad Davlat Universitetining yuridik fakultetiga o‘qishga topshirgan va 25 kishilik tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan.» xalqaro savdo prinsiplari» mavzusida diplom himoyasini bajargan. V.Putin 1975 yil to‘rtta bitiruvchi qatorida Leningrad viloyatining Leningrad KGB Boshqarmasiga ishga qabul qilingan. Bir qancha vaqt GDR dagi sovet elchisi bo‘lib ishlagan. V.Putin premer-ministr lavozimini egallash vaqtida Rossiya Federatsiyasi Ma’muriyatining boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlar edi. 2000 yil 26 mart kuni V.Putin Rossiya Federatsiyasi prezidenti lavozimiga saylandi. Birinchi turdayoq o‘z raqiblarini ortda qoldirdi¹⁰¹.

Prezidentlik odimi Putin uchun muvaffaqiyatli bo‘ldi. 2000 yil xo‘jalik o‘sish surati oxirgi 20 yildagi rekord darajaga etdi. 26 oyga yaqin (1998 yil sentyabr)engil sanoatdagi o‘sish tanaffussiz davom etdi. Qarzdorlik yillarida birinchi bor qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish o‘sdi. 2000 yil birinchi bor rentabelli natija bo‘ldi¹⁰². 2002 yil Rossiyada don maxsulotlari tarixida

⁹⁹ Аргументы и факты. 2008. № 9. С. 6-7.

¹⁰⁰ O‘shayerda.b.28.

¹⁰¹ Аргументы и факты. 2000. № 6. С. 6-7.

¹⁰² Верный путь России. Что хотят сделать США // Независимая газета. 2006. 28 апр.

birinchi bor rekord darajaga etildi. Gektaridan – 19,6 sentner xosil olindi. Amerikalik siyosatshunoslar bu samaradorlik haqida qo‘yidagilarni qayd etishadi : “ Bu xolat V.Putin uchun barqaraorlikni ta’minlashga yordam berdi. Uning boshqaruvi davrida bu xolatlar ko‘p bor takrorlandi”¹⁰³.

Mashxur nemis politologi Aleksandr Rar Putin davridagi Rossiya Federatsiyasiga qo‘yidagicha baxo bergan : Putin o‘zi oldiga vazifa qo‘ygan. Ulardan ba’zilarini bajardi. Ba’zilari esa – yo‘q. Ammo Putin davrini AQSH dagi Bushning sakkiz yillik boshqaruvi bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, Rossiya prezidenti ko‘p xolatlar yutuq, g‘alabaga erishgan ko‘rinadi. U ushbu davrda jamiyat barqarorligini maksimal tiklay oldi. Iqtisodiyotni mustaxkamladi, har qanday merosxur uchun yaxshi qonunchilik ba’zasini yarata oldi”¹⁰⁴.

Rossiya dunyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tan olingan. Bu mana shunday tasdiqlangan. “ Rossiyaning eng yangi tarixida birinchi bor, deydi prezident Putin,- biz inflyasiyani – 9 % ga kamaytira oldik. 1999 yil Rossiyada inflyasiya 36,5 foizni tashkil qilgan. Turli xil hisob-kitoblarga ko‘ra 2006 yil bu 6,7 dan 6,9 foizgayav bo‘lgan. Oltin valyuta zaxirasi bugungi kunda- 303 milliard dollarni tashkil qilmoqda. Barqarorlashgan fond- 88 milliard dollarga teng. Bu Rossiya iqtisodiyotida stabillik mavjudligini bildiradi”¹⁰⁵.

Biz jiddiy tashqi siyosiy kapitalni jamg‘ara oldik. U mamlakat rivoji uchun ishlamoqda. Fuqarolar manfaati va milliy biznesni himoya qilmoqda. Oxirgi sakkiz yilda Rossiya iqtisodiyotidagi xorij investitsiyasi hech bir foiz emas, balki – 7 barobar oshgan. 1999 yil bozor munosabatlari kapital fondi fantastik darajada – 22 barobar (1 trillion 330 milliard dollar) oshdi¹⁰⁶.

Har qanday xolda ushbu munosabatlarni taxlil qilishda ikkilansa, xalqlarning tarixiy xolatiga, bir-biriga ziddiyatini o‘rganishi, tarixiy jarayon xolisligiga qarshi chiqishi mumkin!. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy

¹⁰³Оберемко В., Рар А. Путин остается у власти // Аргументы и факты. 2006. № 49.

¹⁰⁴В. Путин о нацпроектах, борьбе с коррупцией и преемственности политики // Аргументы и факты. 2007. № 6. С. 2, 4.

¹⁰⁵Века.А.В.История России с древнейших времен до наших дней.Минск,2006.с.301

¹⁰⁶Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.374

parametrlariga yondashilganda, aniq bo'ladiki mustaqillik yillarida Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putin va O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov ittifoqchilik bitimi imzolanganligi ma'lum bo'ladi.Uning tashabbusi bilan Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston ittifoqiga O'zbekiston ham qo'shildi¹⁰⁷.

Biz bu an'anani bugunda o'zgartirmoqchi emasmiz. Shu bilan birga dunyodagi o'zgarishlar qanday bo'layotganligini yaxshi bilamiz. Albatta bunga real baxo beriladi. Adolatli va demokratik dunyoviy jamiyatni qurish, xavfsizlikni ta'minlash barchamiz uchun muhim hisoblanadi.

Vladimir Putin portretiga chizgilar... SSSR va Rossiyaning birinchi shaxslari qatorida uning Rossiya zamonaviy tarixiy taraqqiyotidagi faoliyati, dunyodagi yirik davlat boshlig'i sifatidagi o'rni qandayligi muximdir.

¹⁰⁷ Путин В. Хватит с нас однополярного мира! // Аргументы и факты. 2007. № 57. С. 4-5.

III BOB.O'ZBEKISTON-ROSSIYA O'ZARO MUNOSABATLARIDAN KUTILAYOTGANISTIQBOLLINATIJALAR

3.1.Munosabatlarning zamonaviy jihatlari

Rossiyaning buyuk Yevrosiyo davlati sifatida shakllanishi va taraqqiyoti Yevropa va Osiyo yo'nalishlarida o'zining iqtisodiy va siyosiy qiziqishlarini himoya qilishi bilan sifatlanadi. Haqiqatdan ham Rossiya siyosatida Yevropa yo'nalishi yetakchilik qilardi.

Ammo, Osiyo yo'nalishi bo'yicha ham Rossiyaning siyosati jadallashish suratiga ega edi. Bu O'rta Osiyo orqali Hindiston, Afg'oniston va Eronga savdo yo'lining o'tganligi bilan bog'liq edi. XIV asr o'rtalarida buxorolik hamda xivalik savdogarlar Quyi Novgorodgacha yetib kelishadi. Rossiyaning O'rta Osiyo bilan davlat munosabatlari boshlanishi XVI asrga to'g'ri keladi. 1558-yilda Ivan IV hukumati Xiva va Buxoroga A.Jenkinson diplomatik missiyasini Xiva va Buxoroning Rossiya bilan erkin savdoni yo'lga qo'yish taklifi bilan yuboradi. Bu missiya natijasida Buxoro va Xivadan javob elchiligi yuboriladi, biroq aloqalarning doimiyligiga erishilmaydi¹⁰⁸.

Pyotr I bu munosabatlarni yaxshilashga harakat qiladi, u nafaqat O'rta Osiyo bilan, balki, Eron hamda Shimoliy Hindiston bilan ham savdo aloqalarini o'rnatishga urinadi. Biroq, O'rta Osiyo xonliklaridagi Rossiya elchiligi ko'pincha fojea bilan yakunlangan.

Knyaz Bekovich – Cherkasskiyning 1717-yilda Xivani egallash maqsadida yuborilgan harbiy ekspeditsiyasining halokatli natijasi ma'lum¹⁰⁹. Uning xon tomonidan kichik guruhlariga bo'lingan otryadi qirib tashlangan. Bu voqea hukumatning O'rta Osiyo va O'rta Sharq bilan tanishishni kuchaytirishni vaqtinchalik uzib qo'yadi, ammo, Markaziy Osiyoga nisbatan qiziqishni zaiflashtirmadi.

¹⁰⁸Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. -Указ. изд. С.153.

¹⁰⁹Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией: Конец XVI - начало XIX вв. //Общественные науки в Узбекистане. 1984. № 1. с.45.

Rossiya siyosatida O'rta Osiyo masalasi bo'yicha yangi muhit XIX asrda kirib keladi, u hukmron sinflarning siyosiy va iqtisodiy qiziqishlari bilan belgilanadi. Bu asrning birinchi yarmida Rossiya samoderjaviyasi O'rta Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarga kirishishga harakat qildi. Feodal tizimning parchalanish jarayoni va kapitalistik munosabatlarning rivoji Rossiya hukumatining Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarini kengaytirish qiziqishini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ishg'ol etilgan O'rta Osiyo bozorlari bu hududda Rossiya siyosiy ta'siriga mos tushishi lozim edi.

1853-1856-yillardagi Qrim urushi Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan e'tiborini chalg'itadi¹¹⁰. Shu bilan birga bu Rossiyaning Yevropa va Osiyodagi eng jiddiy va xavfli raqibi Angliya ekanligini isbotlab berdi. XIX asrning 60-yillari boshidagi Polsho qo'zg'aloni bilan bog'liq Yevropadagi siyosiy vaziyatning jadallashuvi, ingliz-rus qarama-qarshiligining chuqurlashuvi, Rossiyada kapitalizm rivojiga talab O'rta Osiyoga nisbatan harbiy yurish rejasiga o'tishni shart qilib qo'ydi.

Rossiyada inqilobiy ko'tarilishlar davrida o'z vaziyatini mustahkamlash va pomeshchiklar sinfi vakillari ustidan mamlakat siyosiy hayotidagi hal qiluvchi ta'sirini saqlab qolish uchun chor hukumati XIX asrning 60-yillaridan islohatlar yo'liga o'tdi¹¹¹.

XIX asrning 60-yillarida Rossiyada kapitalizm rivoji uchun muhim ahamiyatni O'rta Osiyo hududi bajardi. O'sha vaqtda bozorlarda ingliz tovarlari sonining ko'plab miqdorda paydo bo'lishi tufayli Rossiyaning Xitoy bilan quruqlikdagi savdosi barbod bo'lgan holda rus sanoat maxsulotlari sotuvi uchun O'rta Osiyo bozorlari ahamiyati kuchli darajada o'sadi¹¹².

O'rta Osiyo xonliklari Eron bilan bir qatorda Rossiyaning markaziy sanoat guberniyalarida tayyorlanuvchi matolarni sotilishida muhim bozorlardan edi.

¹¹⁰ Века.А.В.История России с древнейших времен до наших дней.Минск,2006.с.142

¹¹¹ Ахмеджанов Г.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.40

¹¹² Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.85

O'sha yillarda rus tekstil sanoati uchun xom-ashyo bazasi sifatida O'rta Osiyoning katta ahamiyati butunlay belgilandi. AQSHdagi fuqarolar urushi davrida Yevropaga Amerika paxtasini yetkazish deyarli butunlay to'xtab qoladi, bu 1862-1865-yillarda paxta yetishmovchiligiga olib keladi. 90 foizdan ziyod Amerika xom-ashyosi asosida ishlovchi Rossiyadagi paxtaga oid sanoat inqirozli holatga kelib qoldi.

O'rta Osiyolik savdogarlar Rossiyaga mahalliy ishlab chiqilgan paxta yetkazishni kuchaytirdilar va bu bilan o'z baholarini oshirishdi. Ilgari O'rta Osiyodan yiliga 120-150 ming pud paxta olib kelingan bo'lsa, endi 500-700 ming pud paxta keltirilgan, ya'ni o'sha vaqtda Rossiyaga import qilinuvchi paxta xom-ashyosining deyarli 50 foizini tashkil etgan¹¹³.

O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olish haqidagi masala rus ommasida keng muhokama qilina boshlandi. 50-yillar oxiri – 60-yillar boshlarida Rossiya-Osiyo savdosidagi foyda haqida so'z ketgan maqolalar, ommaviy ishlar, hukumat loyihalari chop etila boshlanadi. Podsho Rossiyasining vazirlar xonasida O'rta Osiyo xonliklarini harbiy kuch bilan egallash rejasini qayta ishlab chiqarish kuchaytiriladi.

Kapitalistik taraqqiyotning o'ziga xos yo'liga chiqqan Rossiyaning jamoaviy-siyosiy, ijtimoiy va savdo iqtisodiy holati ko'rinishi ana shunday edi.

Shunday qilib, XIX asrdan Turkistonda istiqomat qiluvchi xalqlarning hayoti podsho hukumatining boshlagan qonli ekspansiyasi tufayli juda o'zgarib ketadi, bu XVIII asrning 30-yillaridayoq bosqichma-bosqich istilo qilgan va o'ziga qo'shib olgan qozoq yerlari bilan ham bog'liq edi¹¹⁴. Bu Rossiya imperiyasining Turkistonda o'rnatgan kalonial hukmronligining oxirgi davri edi.

Jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan Turkiston xalqi o'zining ko'p yillik tarixida oxirgi marta kalonial zahar qadahini ichishga majbur bo'ladi.

¹¹³ Киняпина Н.С. Внешняя политика России второй половины XIX века. М., 1974. С. 229.

¹¹⁴ O'shajoyda.b.42

Barcha chet elliklar bosqinidan farqli tarzda Turkistonda Rossiya hukmronligida o'ziga xos ikki xil tarix namoyon bo'ldi: dastlab to 1917-yildagi Oktyabr to'ntarilishigacha podsho hukumatining kalonial zulmi, undan keyin XX asrning 90-yillari boshigacha davom etgan sovet imperiyasining totalitar tuzimi¹¹⁵.

Turkistonni istilo qilish va O'rta Osiyoda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi Rossiya va Markaziy Osiyo xalqlarining yangi va eng yangi tarixida alohida bobni tashkil etadi.

Istilochilik bosqini natijasida O'rta Osiyoning yirik shaxarlaridan bo'lgan Toshkent O'rta Osiyo va Qozog'istonning yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga aylantiriladi, bu butun Markaziy Osiyo hududida umumiy holatga juda katta ta'sir etgan. Rossiya va Angliyaning kalonial qiziqishlarining to'qnashishi bilan bog'liq holda bu yer imperialistik qarama-qarshiliklar va xalqaro munosabatlar tuguniga tortilib, XIX va XX asr arafasida jahon siyosati bo'g'inidan biriga aylanadi.

Rossiya- O'rta Osiyo munosabatlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi turg'un harakterga ega bo'lishni boshlab beradi. Aloqalar ilgarigiga nisbatan ancha jonlanadi. Chimkentning Toshkentga yaqinligi Chimkent yo'lining savdo-iqtisodiy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi, bu bozorlarni va O'rta Osiyodagi yirik iqtisodiy markazlarni jonlantirish uchun juda qulay bo'lgan¹¹⁶.

O'rta Osiyo va Qozog'istonda podsho hukumati istilochiligi va hukmronligining o'rnatilishi davri tarixining muhim xislatlaridan biri ko'p millatli Rossiya davlatining butun tarixida ajralmas aloqaga ega bo'ldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'p asrlik jarayon yakunlanib, Qozog'iston, Sibir va Uzoq Sharq davlat sifatida tashqi hududiy birlik, iqtisodiy butunlik, tarixiy o'zaro aloqalar asosida shakllanadi¹¹⁷.

¹¹⁵ История России. С начала XIX до начала XXI века / Под ред. чл.-корр. РАН А.Н. Сахарова. М.: Институт российской истории РАН, 2005. с.195

¹¹⁶ Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. -Указ. изд. С.132.

¹¹⁷ Усманова Л. Тюрко-татарская эмиграция в Северо-Восточной Азии начала XX в.// Гасырлар авазы - Эхо веков. 2005. № 1.

Tarix Rossiyani beqiyos, o'zga biror bir yirik davlat bilan taqqoslab bo'lmaydigan holatga keltirdi. To'g'ri, aslida Hindiston va Xitoy kabi boshqa ko'p millatli geografik hamda tarixiy yagona davlatlar ham mavjud bo'lgan. Biroq, ko'p millatli Rossiyadan farqli tarzda Hindiston Buyuk Britaniya kaloniyasi, yarim feodal Xitoy esa taypinlarning buyuk dehqonlar qo'zg'aloni qurshovida edi. Bundan Yevropa imperialistik davlatlar va Rossiya foydalanishdi, ular bu yirik mamlakatni o'z ta'sir doirasida bo'lib olishadi.

Olam turli tuman, biroq o'z tarixiy rivojida yagona va o'zaro bog'langan. Buni ayniqsa ko'p millatli davlatga aylangan Rossiya misolida ko'rish mumkin bo'lib, u XIX asrda Yevropaning ko'plab davlatlari hamda Osiyo bilan yaqin bo'lgan. Ular orasida Buyuk Xitoy va kolonial Hindiston bo'lib, ular 1895-yilgi Pomir chegarasi o'rnatilganidan so'ng deyarli qo'shni davlat holatiga aylanadi, ularning chegarasi deyarli butunlay Rossiyaga yaqinlashib qoladi¹¹⁸.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tarkibiga butun O'rta Osiyo hududi – Turkiston, Xiva va Buxoro kiradi. Mehnatkash aholiga mahalliy feodallar ekspluatatsiyasi bilan birga podsho hukumati tomonidan amalga oshirilgan shafqatsiz zulmlar ham qo'shiladi. Rus bo'lmagan millat vakillari vahshiy ekspluatatsiya manbasiga aylanishadi.

Rossiya ko'p millatli davlat sifatida boshqa yirik davlatlardan ularning kolonial hukmronligi va bu yerda, metropoliyada ekspluatatsiyaning yirikligi bilan farq qilib, o'zida turli irq vakillari va turli qabilalarning ijtimoiy asosini namoyon etgan¹¹⁹. Rossiya davlatining ko'p millatli tarkibida milliy atrof xalqlari bilan birga, shuningdek millionlab nemislar, polyaklar, koreyslar, kurdlar, boshqa millatlar vakillari yashagan.

Rossiya kapitalistik davlatlar orasida yer sharining butun hududiy bo'linishida eng faol ishtirok etadi va dunyoning yirik kolonial davlatlaridan biriga aylanadi,

¹¹⁸ O'shajoyda.b.44

¹¹⁹ Тюрюканова Е. Трудовая миграция в России// Журнал «Отечественные записки». 2004, №4;

geosiyosiy qiziqishlar birinchi rejaga ko'tarila boshlanadi¹²⁰. Moskvaning ko'tarilish davridan boshlangan doimiy agressiya va ekspluatatsiya o'zining choqqisiga ko'tariladi. Mashxur siyosatshunos Yuriy Afanasevning fikriga ko'ra o'ziga yangi yerlarni qo'shib olgan Rossiya har doim istilochilik bilan yashagan. Rossiya tarixida hatto urushsiz davom etgan davr ham bo'lmagan. Istilo qilgan va talagan.

Podsho imperiyasi tarkibida bo'lgan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari taqdiri hamma narsadan mahrum ilingan rus xalqi ommasi, rus mehnatkashlari va Rossiyaning boshqa xalqlari taqdiri bilan tutash bo'lgan¹²¹.

Turkistonning istilo qilinishi va O'rta Osiyoda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi ijtimoiy hamda iqtisodiy rejada tashqi belgilangan ijobiy oqibatlarga ega edi. O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan sharq despotiyasining ba'zi bir juda og'ir va xunuk ko'rinishlari yo'qolib ketadi. Feodal urushlar yakunlandi, qulchilik yo'q qilindi. Rus kapitalizmi bu yerlarga yuqori suratda oqib keldi. Rus fabrikalari tovarlari O'rta Osiyo bozorlarini to'ldirishdi, Rossiyaga O'rta Osiyo xom-ashyosini olib kelish tez suratlarda oshdi – paxta, ipak, qorako'l teri¹²². O'rta Osiyoni Rossiya Markazi bilan bog'lovchi 70-yillari oxiridan boshlangan temir yo'l qurilishi ularning dunyo tovar murojaatiga tortishiga olib keladi.

Xo'jalik tizimida kapitalistik munosabatlarning o'rnatilishi O'rta Osiyoning kapitalistik korxonalarida rus aholisi vakillaridan iborat proletariat guruhi singari, mahalliy millat vakillarida ham temir yo'lning qurilishiga qiziqish uyg'otgan edi. madaniy-ma'rifiy muassasalar, rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi yangi mahalliy ziyolisining shakllanishiga imkon yaratadi. O'lkada tadqiqotlar olib borgan Rossiyadan kelgan ilmiy ekspeditsiyalar ko'plab tabiiy boyliklarning ochilishini boshlab beradi – neft, ko'mir, rangli metallar. Ekspeditsiyalarga ko'zga ko'ringan mashxur rus olim-sayohatchilari Semyon-Tyan-Shanskiy, Potanin,

¹²⁰Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Уз-бекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. № 1. С. 41.

¹²¹Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. № 1. С. 40.

¹²²Юлдашев М.П. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVIII вв. -Ташкент: Наука, 1964. с. 22.

Prjevalskiy, geolog Mushketyov, zoolog Seversov, botanik Leman va boshqalar rahbarlik qilgan¹²³.

Mahalliy aholining ruslar bilan muloqati jarayonida rus xalqi ilg'or madaniyatining ta'siri ko'zga tashlanadi. 70-yillarda O'rta Osiyoga yuborilgan revolyutsionerlar rus inqilobiy demokratiyasining ozodlik g'oyalari tarqalishini amalga oshirishadi. Mahalliy ziyolilar orasida alohida jamoatchilik fikri namoyondalari o'z ijodlarida bu ta'sirni aks ettirishgan. Ular orasida qozoq ijodkori Abay, o'zbek shoirlari Muqimiy va Furqat, ayniqsa Cho'qan Valihon alohida ahamiyat kasb etgan. Furqat Rossiyaning ilm-fan va madaniyat sohasida erishgan yutuqlariga havas qilar edi va ularning Turkistonda joriy etilishini istardi¹²⁴.

O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga qo'shilishining belgilangan ijobiy oqibatlari o'z o'rniga ega edi. Shu bilan birga bu jarayonda pozitiv harakter nafaqat kalonial o'lkalarning o'zida, balki, Turkiston bilan qo'shni mamlakatlar bilan munosabatda ham namoyon bo'ldi: Afg'oniston, Eron, Xitoy, Hindiston. Afg'oniston va Eron Buyuk Britaniya kaloniyasiga aylanib qolishdan qochganligi tufayli Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashadi. Ingliz istilochilarining G'arbiy Xitoyga (Sinszyan) uyushtirgan tajovuzkorligi Rossiya bilan jadal qarama-qarshilikka to'qnashishga olib keladi. Hindiston va boshqa mamlakatlar xalqlari o'zlarining ingliz kalonial hukmronligiga qarshi kurashlarida samarasiz bo'lsada, biroq Rossiya yordami va qo'llab quvvatlashiga tayanib yo'l izlashadi¹²⁵.

Despotik rejim hukmron bo'lgan Rossiyada o'n millionlab dehqonlar pomeshchiklar va podsho chinovniklarining shafqatsiz va yovuz zulmi ostida edi.

Ilg'or rus sharqshunos olimlarining yorqin vakili bo'lgan L.A.Klimovich shunday qayd etadi: "Rossiya uchun O'rta Osiyo, Sharqning boshqa hududlari kabi, hech qachon biror bir narsada uzoq bo'lmagan. Rus odamlari

¹²³МугаловДж Узбекистан-Россия: по пути укрепления взаимовыгодного сотрудничества // <http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/internationalnews/554.html>

¹²⁴Фуркат. Избранное. Ташкент, 1980. С. 70.

¹²⁵Ахмеджанов Г.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.55

allaqachonlardan beri bizning Sharq xalqlari bilan faol muloqatda bo'lib kelishgan. Shuning uchun Sharq xalqlari va ularning madaniyatini o'rganish ilg'or rus odamlari uchun yaqin va ahamiyatli bo'lib kelgan".

O'rta Osiyoning bu iqtisodiy va madaniy rivojlanishi kuchida Yevropa davlatlari, birinchi o'rinda Buyuk Britaniya singari davlatning klassik kalonial tizimi bo'yicha ilgari surmagan. Bu yerda, Turkistonda, umuman butun O'rta Osiyoda Rossiyaning yaratuvchanlik roli barcha sohalarda namoyon bo'ldi¹²⁶.

Turkiston o'lkasi, Xiva va Buxoro bozor munosabatlari va Tovar-pul aloqalariga tortiladi, iqtisod va madaniyat taraqqiy etadi, mahalliy va rus xalqining muloqati hamda o'zaro ta'siri kuchayadi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab rus burjuaziyasining O'rta Osiyo o'lkasiga nisbatan munosabati sezilarli darajada o'zgardi, bu yerda sotuv va xom-ashyo bozori gullab yashnadi¹²⁷. O'lkaning iqtisodiy asoslari jadallik harakteriga ega. Bu yerda xom-ashyoni birinchi qayta ishlab chiqarish sanoati tashkil etiladi. Paxta ishlab chiqarish iqtisodning muhim sohasiga aylanadi, temir yo'llar O'rta Osiyoni markaziy sanoat rayonlari bilan bog'lab, uni butunrossiya bozoriga, undan esa dunyo bozoriga tortadi.

Birinchi o'rinda Turkistonni rivojlantirish yo'nalishini kuchaytirish Rossiyaning kalonial bo'ysundirish qiziqishi edi¹²⁸. Turkistonni rivojlantirish butunlay belgilangan yo'nalishda kechib, imperiyaning xususiy qiziqishlaridan chetga chiqmaydi. I.Karimov tomonidan to'g'ri qayd etilganidek Markaziy Osiyodagi infratuzilmalarning o'zgartirilishi, yo'llarning qurilishi va aloqa tizimining rivojlantirilishi, shu maqsadlarda milliy kadrlarni tayyorlash – bularning barchasi imperiya qiziqishlarini ta'minlashi kerak edi, shunday holda Rossiya o'zining arzon xom-ashyo va energiya manbasiga erishuvini ta'minlar edi.

¹²⁶Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией: Конец XVI - начало XIX вв. //Общественные науки в Узбекистане. 1984. № 1. с.42.

¹²⁷Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. - Ташкент: Фан, 1983. С13.

¹²⁸Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. № 1. С. 39.

Imperialistik davlatlar, shu qatorda Rossiya ham dunyoni bo'lib olishda yangi yerlarni egallashga harakat qiladi.

Natijada, XIX – XX asrlar arafasida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixi – Markaziy Osiyo yuragidagi yirik geosiyosiy makon podsho istilosidan so'ng Rossiya imperiyasidagi boshqa xalqlar taqdirlari bilan qo'shilib ketadi¹²⁹.

¹²⁹ O'shajoyda.b.58.

3.2.Sobiq Ittifoq milliy siyosati oqibatlarining Rossiya-O'zbekiston munosabatlariga tasiri.

Tez suratda o'tib ketgan davr, ya'ni samoderjaviyaning bekor qilinishi va Fevral burjua-demokratik inqilobidan to 1917-yil Oktyabr inqilobi natijasida tashkil topgan Muvaffaq hukumat – bu Rossiya imperiyasi tarixida hatto inson o'lchami bilan hisoblaganda ko'z ochib yumguncha sodir bo'lgan voqealar.

Rossiyada jamoatchilik qarashlarini tebratgan masalalardan biri bu milliy masala edi¹³⁰.

Turkistonga keladigan bo'lsak, bu yerda 1917-yil noyabrda hokimiyat ishchi va askar deputatlari Kengashi va Toshkent Kengashining Ijroi qo'mitasi qo'liga o'tadi. Bu bolsheviklar tomonidan inqilob g'alabasi va o'lkada Sovet hokimiyatini qayd etishning boshlanishi sifatida qabul qilinadi.

Biroq, hokimiyatning yangi organlari tashkil etilishi chog'ida mahalliy musulmon vakillari unga kiritilmagan, bu “Rossiyaning milliy masaladagi siyosati: tarix va hozirgi kun” kitobida ham tan olingan. Sovet askar, ishchi va dehqon deputalari syezdi o'z qarorini to'liq belgilangan holda e'lon qiladi: hozirgi vaqtda o'lkadagi inqilobiy hokimiyatning yuqori organlariga musulmonlarni kiritish Sovet hokimiyatidagi tuzem aholisiga nisbatan munosabatlarga butunlay to'g'ri kelmaydi, u yerda sinfiy tashkilotlar mavjud emas¹³¹.

Diqqatga sazovorlisi shundaki, ochiqcha separatistik tendensiyalar ko'zga tashlanmaydi. “Rossiya buyuk inqilobida e'lon qilingan Turkiston xalqining dastlab o'zini o'zi belgilab olishga bo'lgan xohishini aks ettirgan holda ” syezd Turkistonda Ta'sis majlisi normalari o'rnatiladi.

Musulmonlar yetakchisi M.Cho'qayev syezddagi o'z chiqishida shuni qayd etadi: “Markazda sodir bo'layotgan voqelar, o'lkaning o'zini o'zi qutqarish va buyuk milliy inqilobdan qutqarish haqida o'zi g'amxo'rlik qilishiga majbur etadi”.

¹³⁰ Национальная политика России: история и современность // М., Русский мир. 1997.с.201.

¹³¹ Ахмеджанов Г.Россия и Центральная Азия.Взаимосвязь в историческом развитии.М-Т,2008.с.160.

Kitobda bu oqibatlarni hatto Turkiston qo'mitasi Muvaffaq hukumatining sobiq a'zosi I.Shedrikov ham tan olganligi qayd etilgan¹³².

Etnik jihatdan bu yagona xalq hukumati emas edi. Qo'qon avtonomiyasiga qarshi qurolli kuchlar ishlatiladi va 1918-yilning fevral oyi boshlarida shaxar Qizil armiya otryadlari tomonidan egallanadi va vayron etiladi¹³³.

Shuni qayd etish muhimki, "Rossiyaning milliy masaladagi siyosati: tarix va hozirgi kun" kitobi bobida bolshevistik inqilob va sovet hokimiyatining zo'rovonlik muassasalari targ'ibot masalalari ko'rib chiqiladi.

Oktyabr to'ntarishining dastlabki yillarida bolsheviklar va birinchi o'rinda Leninning o'zi xalqlarning o'zini o'zi boshqarish huquqi haqida, o'z taqdirларini o'z xohishlaricha demokratiya asosida belgilash haqida ulug'vor e'lonlar qilishdi¹³⁴.

1918-yilda Sovetlarning butunrossiya syezdi mehnatkashlar va ekspluatatsiya qilingan xalq huquqi Deklaratsiyasi qabul qilindi, Rossiya Federativ Respublika deb e'lon qilindi. Bolsheviklarning bunday siyosatni targ'ib qilishlari kalonial qaramlikdan ozod bo'lishga intilayotgan mamlakat xalqlari qiziqishlariga javob berar edi.

Biroq, hammasi bunday emas edi. Milliy respublikalar tashkil etish yo'lidan borib, kommunistik rejim barcha hollarda xalqlar qiziqishlarini inobatga olish haqidagi targ'ibotlariga qaramay o'zining hukmronligini o'zgartirmasdan qoldiradi.

Misol uchun jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan yetakchilaridan biri Zakiy Validiy sovet hokimiyatidan Boshqirdistonga avtonomiya berish haqida kelishuvga erishganida shunday hol bilan to'qnash keladi. Sezilarli tajribaga ega bo'lib, u tashkilotchilik ishlariga kirishadi.

¹³² O'shajoyda.b.210.

¹³³ История Узбекистана. том 1. Т, 2000. с. 115.

¹³⁴ Терещенко Ю. Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д, 2004. с. 261.

Biroq, shu zahotiy oq Boshqirdistonga nazorat va “yordam” uchun Bolshevik markaz vakillari F.Samaylov, Y.Preobrajenskiy, F. Sergeyev (Artyom) lar yuboriladi. Siyosiy inqiroz vaziyati yuzaga keladi. Validiy tomonidan rahbarlik qilingan Boshrevkom milliy tashkilot deya e’lon qilinadi¹³⁵.

Biroq, Leninning targ’ibotchilik shiorlariga hali uzoq vaqt ishongan Validiy 1920-yil yanvarda RKP MQ ga murojaat qilib quyidagilarni yozadi: RKPning boshqaruv organlarida o’zmamlakati bilan tanish bo’lgan, sharq musulmon millatiga mansub bo’lgan biror kishi yo’q, bizlarga nisbatan Sizning o’zingiz bu hol Sizga va sharq inqilobchilariga qanchalik qiyinchilik tug’darayotganligini juda yaxshi bilasiz”¹³⁶.

Validiyning RKP MQ ga murojaati javobsiz qoladi. Bundan tashqari, Rossiyda zo’rlik to’ntaruvi yo’li bilan hokimiyatga kelgan bolsheviklar rahbarlari hatto dastlab o’zlari ular bilan hamkorlikka kirishishni istagan kuchlarni ham o’zlaridan itaradi.

Keyingi voqelar shiddat bilan avj oldi. Z.Validiy Turkistondagi mavjud inqilobiy taqdirdan qayg’urib mahfiy majlisda Xiva Respublikasini ogohlantirib, boshqird hukumatining barbod bo’lishi sovet hokimiyatini Xorazm hukumati ustidan ham xuddi shunday tajribani qaytarishiga majbur etishiga tayyor turishi kerakligini aytadi.

Shu bilan birga yana bir muhim voqea yotar edi. Gap 1920-yilning yozida Bakuda o’tgan Sharq xalqlarining Birinchi syezdi haqida ketmoqda, unda jiddiy mulohazalar o’rniga joylardagi siyosat, musulmonlarning joylashuvi haqida gaplar muhokama qilingan. Darhaqiqat, shunga o’xshash haqiqatdan yiroq bo’lgan g’oyalar milliy namoyondachilarni ruhlantirmas edi¹³⁷.

¹³⁵История России XX век. Учебное пособие вузов. М, 2000. с. 84

¹³⁶Муталов Д. Ж. Узбекистан-Россия: по пути

¹³⁷О’shajoyda. b. 163.

Shu munosabat bilan 1920-yil sentyabrida Z.Validiy Lenin nomiga Bakudagi Sharq xalqlari syezdi “eng salbiy tasurotlarni tashkil etganligi” to’g’risida maktub yozadi. Z.Validiy Markazning kommunistik rahbariyatini uzoqni ko’ra olmagan shunga o’xshash siyosati natijasini aytishga kechikmasligi haqida ogohlantiradi.

Z.Validiy qarashlari sharq namoyondasining boshqa mashxur bir vakili – Turor Risqulov qarashlari bilan uyg’unlashadi¹³⁸. Turkistonning haqqoniy bilimiga va siyosiy tajribasiga asoslanib talqin etilgan g’oyalari o’z natijalariga ega edi. RKP MQ dagi Turkiston rahbar vakillari qatorida qilingan nayonotida T.Risqulov “musulmon ziyolilarining eng kuchli vakili sifatida” harakterlandi.

Keyinroq, inqilobiy tizim maqsadi qarashlari ichida bo’lgan Risqulovni milliy vakil qilmaslik qayd etiladi. U Sharqni tubdan o’zgartirish ishi “Sovet Rossiyasidagi mehnatkash musulmonlarning inqilobiy tashkilotlari orqali amalga oshirilishi kerakligi haqida” ta’kidlab o’tadi¹³⁹. Buning uchun milliy-ozodlik harakatlari dastlab “mayda burjuaziya qatlamlari vakillari bilan birga harakat qilishi” keyin esa tarqalishi lozim edi. Risqulov Turkistonda mavjud mahalliy sharoit uslublarga mos ravishda ishlab chiqilmaganligi, mahalliy inqilobchilarga faol ishlashga imkoniyat berishmayotganligidan shikoyat qiladi, mahalliy din vakillari, ulamolar, biylar va mahalliy oqimlar bilan aloqalar o’rnatish haqida gapiradi.

Biroq, partiya tashfiqotlari milliy o’lkalarni boshqarishda yon berishni istashmas edi. Buning uchun turli hududlarda har xil nomlar qabul qilib, harakat qilgan partiya nazoratchilari instituti joylarda tashkil etiladi. Turkkomissiya O’rta Osiyo va Qozog’istondagi ana shunday nazorat organi bo’lib, o’zining yovuz harakatlari bilan bolsheviklarning sharq siyosatini badnom qilishda sezilarli darajada ishtirok etgan¹⁴⁰.

¹³⁸ O’shajoyda.b.256

¹³⁹ O’shajoyda.b.261

¹⁴⁰ Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.с.325.

Jamiyat hayotining barcha sohasida aralashishga uringan Turkkomissiya va alohida bo'limi bo'lgan Turkfront harakatlariga Turor Risqulov ham qattiq qarshilik ko'rsatadi¹⁴¹.

1920-yil sentyabrda tashkil etilgan Turkiston Kommunistik partiyasining V o'lka syezdida Akmal Ikromov ochiqchasiga “qaramlik holatidagi kambag'allik sinfiy kurash nimaligini bilmaydi” deya aytadi. Markazga yetkazilgan mahalliy partiya organlarining zimdan berilgan xabarlaridan birida “o'zbek aholisi sovet hokimiyati ta'sirini o'zida deyarli his etmagan va ular hanuzgacha beylar va ulamolarning to'liq qaramligi ostida” deya qayd etilgan¹⁴².

Biroq, kitob muallifi ta'kidlaganidek, bolsheviklarning kommunistik imperiya qiziqishlarini ijro etadigan geostrategik o'z sharqiy siyosati bo'lgan. Sovet Sharqi birinchi o'rinda jahon inqilobida yo'lak sifatida qaraldi¹⁴³. Lenin har doim sharq masalasi bolshevistik partiya uchun dunyo masalasi bo'lishini qayd etgan.

Aynan Lenin gruzin kommunisti Eliavega quyidagi maktubni yo'llaydi: “Turkistonda zudlik bilan mayda, ammo, mustaqil baza yaratish zarur: patronlar yasash va harbiy qurollarni sozlash uchun. Biz pulni ayaymiz, yetarlicha oltin va chet el tillo tangalaridan yuboramiz. Agar siz harbiy qurollar sotib olishni yo'lga qo'ysangiz (ingliz askar va ofitserlaridan, Fors savdogarlaridan) buning uchun darhol dengizbo'yi punktlariga bora oladigan va u yerda betaraf mamlakatlar kemalari, savdogarlari, matroslari va qaroqchilari bilan aloqa topa oladigan sodiq odamlarni izlashni boshlash kerak. Amerika va Yevropa bilan bog'liq qurol Sharq xalqlariga imperializm bilan kurashida yordam beradi”¹⁴⁴.

¹⁴¹ O'shajoyda.b.270

¹⁴² O'shajoyda.b.164

¹⁴³ История России. С начала XIX до начала XXI века / Под ред. чл.-корр. РАН А.Н. Сахарова. М.: Институт российской истории РАН, 2005.с.201

¹⁴⁴ История Узбекистана. том 1. Т.2000.с.141..

Xulosa.

Sovet davridagi asosiy farq shunda ediki, Sovet Ittifoqi tarkibida Markaziy Osiyo respublikalari ishonchsiz chiqishlari haqida gapirib bo'lmas edi. Moskva siyosatiga qarshi qaratilgan har qanday tanqid qat'iy taqiqlangan. Bugungi kunda bu masalalarni ochiq bayon etish mumkin. Bunda Rossiya ta'siri ostida bo'lgan hududda ijobiy harakatlarni bo'rtirib ko'rsatish majburiy emas. Biroq, bu ta'sirning salbiy oqibatlarini esdan chiqarish mumkin emas. Taqiqlarga qaramasdan SSSRda muammolarni ochiq holda ko'rib chiqishga uringan tarixchilar bo'lgan (Qozog'istonda misol uchun, Isfandiyorov va Bekmaxanovlar). Olimlar o'z fikrlarini ochiq aytganda hatto "iliqlik" davri ham bo'lgan. Lekin bunday davrlar tezda yakunlangan.

Markaziy Osiyo hududida joylashgan mamlakatlar bir-birlari bilan nafaqat geografik yaqinligi bilan, balki, umumiy ko'p asrlik tarixi, milliy til qarindoshliligi, xalqlarning umumiy kelib chiqishi, urf-odatlarini, dini bilan ham uzviy bog'liq. Va bugun, asrlar davomida birlashtirilgan narsalarni ajratib bo'lmaydi.

Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan vaqtda Markaziy Osiyo respublikalari ma'muriy chegaralarga bo'lindi. O'sha vaqtda bu chegaralar yagona katta davlat tarkibida bo'lganligi sabab ancha qulay edi. Biroq, Rossiyada Oktyabr to'ntarilishiga qadar ham bizning barcha hududimiz Turkiston chegaralarida birlashgan edi. tarixga yanada chuqurroq nazar tashlasak ham, biz butun Markaziy Osiyo xalqlariga meros bir butunlikni ko'ramiz. Biz buyuk ajdodlarimizning ijodiy merosi va Markaziy Osiyolik keyingi avlod olimlarining ishlari bilan faxrlanamiz, ularning mehnatlari o'z ko'lamini bilan odamlarni lol qoldiradi va zamonaviy jamiyat ilm-fanining barcha sohalarini o'ziga qamrab olgan.

Ilm-fanga beqiyos hissasi butun dunyo tomonidan tan olingan Markaziy Osiyolik mutaffakkirlar bo'lmish Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino,

Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Jomiy kabi olimlar, Amir Temur, Ulig'bek va Bobur singari ko'zga ko'ringan davlat nomoyondalari bo'lgan. Ularning barchasi bizning umumiy tariximizga dahldor kishilardir.

SSSRning parchalanishidan so'ng O'zbekiston prezidenti Islom Karimov birinchilardan bo'lib Markaziy Osiyo mamlakatlarining yaqinligi va qarindoshligi to'g'risida gapiradi. Uning tashabbusi bilan Toshkentda "Turkiston – bizning umumiy uyumiz" shiori ostida konferensiya bo'lib o'tadi. Beshta respublikalar – Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – ni anglatuvchi besh ildizli chinor konferensiya ramzi bo'ldi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo hududi ichidagi integratsiya mavzusi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Aminmizki, yaxshi qo'shniçilik munosabati, iqtisodiy, siyosiy umumiylik bizga faqat ijobiy natijalar keltirishi mumkin. Shuningdek, Rossiya ham bizning yaqin qo'shnilarimizdan biri, jahonning yirik davlati – dunyo hamjamiyatida hududimizning yaxlit holatga kelishiga ko'mak bermoqda. Bu masalani birgina til nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin. Aynan rus tili tufayli O'ljas Sulaymonov, Muxtor Avazov, Oybek, G'afur G'ulom, Abdullo Oripov, Chingiz Aytmatov singari mashxur yozuvchilar dunyoga mashxur bo'lishadi.

Rus sharqshunoslari orqali bizning chuqur tarixiy merosimiz ham olamga mashxur bo'ldi. V.V.Bartold, A.A.Semyonov, Y.E.Bertels, I.P.Petrushevskiy, V.Struve kabi va boshqa mashxur sharqshunos-tarixchi olimlarning izlanishlari va harakatlari tufayli aynan rus sharqshunosligi juda ilg'or bo'lgan. Rus sharqshunoslari bu yerda qadimgi qo'yoymalarning birinchi ro'yxatini tuzishgan.

Albatta, bugungi kunda Rossiya tomonidan bizning hududga nisbatan munosabatda kolonial siyosatning biror bir shakli borasida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bizning umumiy vazifamiz – yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini tug'dirish, garchi har qaysi alohida davlat o'zaro ta'sirdan o'z foydasini ko'radi va oladi.

Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni turli yillarda qanday yo'lga qo'yganligini tarix har xil misollarda biladi. Kalonial istilochilik davri ham, yaxshilikcha qo'shilgan davri ham bo'ldi. Bugun biz yagona iqtisodiy makon yaratish, SHOS, YevrosES kabi xalqaro tashkilotlar kabi o'zaro harakatlar haqida gapiramiz. Aynan shunday hamkorlik biz uchun o'zaro foydali va istiqbolli bo'lib ko'rinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси ФА қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида Вазирлар маҳкамасининг қарори / Халқ сўзи. 1998 йил. 28 июль.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қоғлатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Душанбе Ирфон, 1960. Вахидов Х.П. Просветительство в Туркестане в XIX начале XX веков// Основы философии. Ташкент, 1908.
5. Ахмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1989
6. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Ташкент, 1995
7. Ахмеджанов Г.А. Россия и Центральная Азия. Взаимосвязь в историческом развитии. М-Т, 2008
8. Азаренко Ю.А. Русско-ойратская торговля XVII - первой половины XVIII вв. (как пример евразийских связей)// Евразия: культурное наследие древних цивилизаций. Вып. 1. Культурный космос Евразии. Новосибирск, 1999
9. Андреев АЛ. Экономический механизм и историческая жизнь нации// Философия хозяйства. Альманах Центра общественных наук и экономического факультета МГУ. 1999. № 2;

10. Боханов А.Н., Горинов М.М., Дмитренко В.П. История России. XX век. в 3-х книгах. Книга III.М.,2001.
11. Бахрушин С. В. Сибирь и Средняя Азия в XVI и XVII вв. // Науч. тр. Т. 4. М.: Наука, 1959.
12. Бакиева Г.Т. Тугумы у татар озера Большой Уват// VI Конгресс этнологов и антропологов России. СПб, 2005.
13. Бржостовская Н.В. Вопросы архивного дела на археологических съездах в России (1869-1911 гг.) //Археографический ежегодник за 1971 год. М., 1972.
14. Бартольд В.В. Положение науки в Туркестанском крае. / Сочинения. Т.9. Работы по истории востоковедения. М.: Наука, 1977.
- 15.Большаков О .Г. Город в конце VIII-начале XIII вв. //Средневековый город Средней Азии. -Л.: Наука. 1973.
- 16.Байкова Н.Б. Роль Средней Азии о русско-индийских торговых связях: Первая половина XVI-вторая половина XVIII вв. -Указ. изд. Ташкент,1957
- 17.Байкова Н.Б. К вопросу о русско-индийских торговых отношениях в XVI-XVIIвв. //Труды ИВ АН УзССР. Вып. 4. -Ташкент: АН УзССР, 1956.
18. Века.А.В. История России с древнейших времен до наших дней.Минск,2006.
- 19.Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений от древнейших времен до настоящего. СПб., 1877.
20. Вилков О. Н. Очерки социально-экономического развития Сибири конца XVI - начала XVIII в. Новосибирск: Наука, 1990.
21. Вилков О. И. Бухарцы и их торговля в Западной Сибири в XVII в. //Торговля городов Сибири конца XVI - начала XX в. Новосибирск, 1987.

22. Валеев Ф.Т. К вопросу о материальной культуре сибирских бухарцев и ташкентцев (Коллекция предметов быта Омского краеведческого музея) // Общественные науки в Узбекистане, 1963. N 1.
23. Валеев Ф.Т. Сибирские бухарцы во второй половине XIX - начале XX вв.: Автореф. дисс. к.и.н. Ташкент, 1965.
24. Валеев Ф.Т. Сибирские татары: культура и быт. Казань, 1992
25. Вороное АЛ. Статьи по архивоведению. Пособие для слушателей Императорского Санкт-Петербургского Археологического института. СПб., 1909.
26. Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов - русский посланник в Персию и Бухару в XVIIв. -СП(б)., 1891.
27. Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов. -Указ.изд. СПб,1891
28. Вызго Т.С. К вопросу о взаимосвязи узбекской и русской музыкальной культур в дореволюционный период. - Общественные науки в Узбекистане. 1961, № 4.
29. Горбачев М. Понять перестройку... М., 2006.
30. Гаспринский И. Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского., Казань, 1894; Искандаров Б.И., Бухара (1918-1920), Душанбе, 1970.
31. Гаспринский И. Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского. Казань, 1894; Семенов АА Очерк устройства центрального административного бухарского ханства позднейшего времени. //Труды АН ТаджССР, т. 25. Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. 2, Сталина бад, 1954.
32. Гольдберг Н.М. Русско-индийские отношения в XVII в. //Учен.зап. Тихоокеанского института. Т. 2. -М. -Л: АН ССР, 1949.

33. Гулямов Х. О Посольстве Флорио Беневени в Бухару // Общественные науки в Узбекистане. 1978. №2.
34. Договор об основах межгосударственных отношений, дружбе и сотрудничестве между РФ и РУз// Действующее международное право. Т. 1. М., 1999.
35. Декларация о правах лиц, принадлежащих к национальным или этническим, религиозным и языковым меньшинствам// Действующее международное право. Т. 2. М., 1999.
36. Джамалов К.К. К истории торговых отношений Средней Азии с Россией с древнейших времен до XVIII в. //Изв. Отд. общ. Наук АН ТаджССР. № 2 (10). Душанбе, 1965.
37. Джамалов К. Торгово-дипломатические отношения Бухарского ханства с Россией в XVII в. -АКД. Душанбе, 1965.
38. Дьяконов М.А. Путешествие в Среднюю Азию с древнейших времен до наших дней. - Л., 1932.
39. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотелетие//Цзуды Общества русских ориенталистов. № 2. Пг., 1915.
40. Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией (конец XVI - начало XIX века)// ОНУз. 1984. №1.
41. «Записки о некоторых народах и землях Средней Азии» Филиппа Назарова (1813-1814)// История Узбекистана в источниках. Ташкент: Фан, 1988.
42. Зияев Х.З. Средняя Азия и Сибирь (2 пол. XVI - XIX вв.). Ташкент, 1964.
43. Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. - Ташкент: Фан, 1983

- 44.Зияев Х.З. Урта Осиё ва Сибирь: XVI-XIX асрлар. - Тошкент: АН УзССР. 1963.
- 45.История России. С начала XIX до начала XXI века / Под ред. чл.-корр. РАН А.Н. Сахарова. М.: Институт российской истории РАН, 2005.
- 46.История Узбекистана в источниках. Ташкент: Фан, 1988.
- 47.Исхакова СМ. О языке сибирских бухарцев // Общественные науки в Узбекистане, 1968. № 5.
- 48.«Известия», 16 мая 2005 г.
- 49.Исламов Ю.В.// Герои Советского Союза. Краткий биографический словарь. Т. 2. М.: Воеиздат, 1988.
- 50.Июфе В.Г. Архивы в Туркестанском крае (вторая половина XIX - начало XXв.). // Отечественные архивы. М., 2009. № 6.
- 51.История СССР с древнейших времен до конца XVIII в. -Указ. изд. М,1965
- 52.Киреева С. О гаю в новое прошлое// АиФ (Москва), № 13 (611) от 30 марта 2005 г.; НормухаммедовИ. Нашему кино 100 лет//газ. «Класс», № 31. 3.09.2008 г.
- 53.Клюева В. П. Использование генеалогических данных при изучении социальной истории (на примере выявления родственных связей сибирских бухар-цев кон. XVII ~ нач. XVIII вв.) //Вторые Тюменские родословные чтения. Тюмень, 2002.
- 54.Клюева В. П. Бухарские общины в Сибири (конец XVI - начало XIX вв.) // Проблемы экономической и социально-политической истории дореволюционной России. Тюмень, 2001.
- 55.Клюева В. П. Сибирские бухарцы Тобольской губернии (конец XVII-XIX вв.): демографический анализ //Словцовские чтения-2001. Тюмень, 2001.

- 56.Корусенко С.Н. Этнический состав и межэтнические отношения татар Среднего Прииртышья (конец XVIII - XX вв.)// «Исторический ежегодник», Омск: 1999.
- 57.Кирсанов Н.А. Национальные формирования Красной Армии в Великой Отечественной войне 1941 1945 // Отечественная история. 1995. № 4.
- 58.«Комсомольская правда». 23 мая 2008 г.
- 59.Кабо Р.М. Города Западной Сибири: Очерки экономической географии (XVII-первая половина XIX вв.) -М., 1949.
- 60.Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края: 1865-1917 гг. - М.: Наука, 1980.
- 61.Линденау Я.И. Описание народов Сибири. Магадан, 1983.
- 62.М. Горбачев вводил в заблуждение советский народ // Независимое обозрение. 2002. № 9.
- 63.Мухаммеджанова Л.П., Мирза кулов Б.Т., Мухаммеджанова С.Ж. Дипломатические и торговые связи Бухары с Россией XVI-XVIII вв.// «Горный вестник Узбекистана» (№ 25) 2006.
- 64.Мигалев П. Первые торговые люди Иркутска// «Капиталист» - иркутский журнал для предпринимателей № 01 (июнь 2004).
- 65.Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане в конце XIX - начале XX вв.// Избр. соч. Т. 1. Ташкент, 1969
- 66.Мугалов Дж Узбекистан-Россия: по пути укрепления взаимовыгодного сотрудничества // http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/international_news/554.html
- 67.Материалы по истории народов СССР. Вып. III. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. 4.1. -Л: АН СССР, 1932.

- 68.Материалы по истории народов СССР. Вып.3. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. 4.1. Указ. изд.
- 69.Михайлова Г.А. Торговые и дипломатические связи России с Бухарским ханством через Оренбург в конце XVIII-начало XIX вв. -АКД. -Ташкент: АН УзССР, 1963.
- 70.Михайлова Г.А. Из истории торговли среднеазиатских ханств хлопковым сырьем: Вторая половина XVIII- первая половина XIX вв. -ОКУ., 1964. № 8.
- 71.Новые Известия. 2004. 31 марта — 6 апреля. № 55
- 72.Назаров Р.Р. Сеид Мир-Мансур // Ислам в Санкт-Петербурге. Серия «Ислам в Российской Федерации». Вып. 3. М. - Н. Новгород; ИД Медина, 2009.
- 73.Назаров Р.Р. Махмудов Абиджан Абдухалик-оглы// Ислам в Санкт-Петербурге. Серия «Ислам в Российской Федерации». Вып. 3. М. - Н. Новгород-. ИД Медина, 2009.
- 74.Новикова Э. Адрес «Ферганской долины» - Новосибирск. 14.12.2010 г.// http://www.megansk.ru/page/Adrec_Ferganckoi_dolini
- 75.Осколков М. Бухарцы в Тюмени //Лукич. 2001.4.4.
- 76.Оропюк Б. К истории архивов в дореволюционном Туркестане.// Научно - методический бюллетень Архивного управления МВД УзССР. Т., 1959- №4.
- 77.Перечень товаров, доставленных из Бухары в Ярославль купцом Хаджи Ата кули (1634)// История Узбекистана в источниках. Сост. Б.В. Лунин. Ташкент: Фан, 1988.
- 78.Подольчане нехотят знать, сколько среди них мусульман// <http://www.muslim-press.ru/news.php?lng=ru&pg=3643>

- 79.Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией в 1675-1785гг. Торговля с Бухарой...М,1991
- 80.Путешествие барона К.Мейендорфа в Бухарин... - Московский телеграф, 1936. С. XI.
- 81.Пулатов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII в. /АКД. - Ташкент, 1984.
- 82.Пуд - русская мера веса в 16, 38 кг. В Средней Азии пуд как самостоятельную единицу начали употреблять еще до 60-х годов XIXв. //Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. -Указ. изд. М,1982
- 83.Русско-индийские отношения в XVII веке. Сб. док. М., 1958.
- 84.Раджабов З. Ажзи и Асири, Душанбе, 1951; Узбекская советская энциклопедия. Т. 1. Ташкент, 1971.
- 85.Раджабов З.Ш. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX и начале XX вв. -Сталинабад. 1957.
- 86.Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX в. и русская буржуазия. М. -Л: АН СССР, 1949.
- 87.Раджабов С.А. Роль великого русского народа в исторических судьбах народов Средней Азии. -Ташкент: Госиздат УзССР, 1955
- 88.Соловьев С.М. История России с древнейших времен.М,2005.
- 89.Сухарева О.А Бухара XIX - начала XX вв. М., 1966.
- 90.Сырова Н. Новое в посольстве Бурнашева и Безносилова //Звезда Востока, 1964. № 4
- 91.Терещенко Ю.Я. История России XX-XXI вв. Ростов н/Д,2004.

- 92.Томилов Н.А. Тюркоязычное население Западно-Сибирской равнины в конце XVI - первой четверти XIX вв. Томск, 1981.
- 93.Томилов Н.А., От Урала до Енисея (народы Западной и Средней Сибир). Томск, 1995.
- 94.Тюрикова Е. Трудовая миграция в России// Журнал «Отечественные записки». 2004, №4
- 95.Тюменские узбечки померились длиной косичек// Сайт «Уралинформбюро» от 23-03.2009 г.
<http://www.ur4.ru/armnews/news104409.html>
- 96.Усманова Л. Тюрко-татарская эмиграция в Северо-Восточной Азии начала XX в.// Гасырлар авазы - Эхо веков. 2005. № 1.
- 97.Умняков И.И. О хлопководстве в Средней Азии с древнейших времен до присоединения края к России/Материалы третьей объединенной научн. конф. ученых Самарканда. Серия гуманитар. и естественных наук. - Самарканд: СамГУ, 1961.
- 98.Фазлаллах ибн Рузбехон Исфохани. Михман-намейи Бухара...
- 99.Федчина В.Н. Развитие картографических представлений о Средней Азии с древнейших времен до XVIIIв. Научн.зап. ТИНХ. - Вып. 31. - Ташкент, 1964.
100. Хайретдинов Д Узбеки, узбекская община в Москве и Подмосковье// Ислам в Москве. Н. Новгород, 2008.
101. Хидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70 гг.). Ташкент, 1969
102. Хими́на Л.И. Отечественное архивное строительство: идея централизации на рубеже XIX--XX веков. // Отечественные архивы. М.,1998. № 4.

103. Чехович А.Д. К истории Узбекистана в XVIII в. //Труды ИВ АН УзССР. Вып. 3. - Ташкент. 1954.
104. Чимимдоржиев Ш.Б. Взаимоотношения Монголии и Средней Азии с Россией в XVII- XVIII вв. -М.: Наука, 1979.
105. Чулошников А. Торговля Московского государства со Средней Азией в XVI-XVII вв. //Труды историко-археологического института и ИВ АН СССР. Вып. 3. -Л., 1932.
106. Шнейдер А.Р., Доброва- Ядринцева Л.Н. Население Сибирского края. Новосибирск, 1928.
107. Экс-президент СССР стал американским журналистом // Аргументы и факты. 2007. № 3. Январь.
108. Яковлева П.Т. Первый русско-китайский договор 1689 г. М., 1958.
109. Ярков А, Гарифулли И.Б. Бухарцы в Западной Сибири// Журнал «Топос». 2004. №6.
110. Юлдашев М.Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. -Ташкент: Наука, 1964.
111. <http://www.samddn.m/ind>
112. samarskaja-regionalnaja-obschestvennaja-organlzatsija-natsionalnyj-uzbekskij-